

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI



AMANOV A.M., SHODIYEV O.A.

**SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH (4-MODUL)
YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH FANIDAN
AMALIY MASHG'ULOTNI TASHKIL ETISH BO'YICHA
(vaziytli masalalar yechish shaklida)
USLUBIY QO`LLANMA**




TOSHKENT – 2023

Mazkur uslubiy qo'llanma Davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq tayyorlangan bo'lib, u Soliqlar va soliqqa tortish (4-modul) Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fani mavzulari bo'yicha tayanch so'z va iboralar, nazorat savollari, mavzu bo'yicha amaliy masalalar, testlar, atamalar izohi, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati va ilovalarni o'z ichiga olgan.

- Tuzuvchilar:** Amanov A.M. - TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası professori, i.f.n.
Shodiyev.O.A. - TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası dotsenti v.b.
- Taqrizchilar:** Boymurotov S.R. - Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası mudiri, PhD, dotsent (turdosh OTMdan)
Qiyosov Sh.U. - TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası professori, DSc.

Soliqlar va soliqqa tortish (4-modul) Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha uslubiy qo'llanma (vaziytli masalalar yechish shaklida) "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasining 2023 yil "24" avgust dagi 1-sonli majlisida muhokama etilib, Soliqlar va sug'urta fakulteti Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

**"Soliqlar va soliqqa tortish"
kafedrası mudiri**



prof. N.Kuziyeva

Soliqlar va soliqqa tortish (4-modul) Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha uslubiy qo'llanma (vaziytli masalalar yechish shaklida) Soliqlar va sug'urta fakulteti Kengashining 2023-yil "15" avgust dagi 1-sonli majlisida muhokama etilib, O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.


**Soliqlar va sug'urta
fakulteti dekani**



dots. L.Zoyirov

Soliqlar va soliqqa tortish (4-modul) Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha uslubiy qo'llanma (vaziytli masalalar yechish shaklida) institut O'quv-uslubiy Kengashining 2023 yil "26" avgust dagi "1" - sonli majlisida muhokama etilgan va tasdiqlash uchun tavsiya qilingan.

Kengash kotibi



dots. I.Choriyev

KIRISH

Soliqlar va soliqqa tortish (4-modul) Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun uslubiy qo'llanma 60410200 – Soliqlar va soliqqa tortish (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Mazkur amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun uslubiy qo'llanma Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, ishchi o'quv reja va soliq qonunchiligining me'yoriy hujjatlariga asoslangan holda yaratilgan. Uslubiy qo'llanma o'n ikkita mavzudan iborat bo'lgan amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga qamrab olib, har bir mavzu mazmunini qamrab olgan tayanch so'z va iboralar, nazorat savollari, masalalar va testlardan iborat. Bu, o'z navbatida, amaliy mashg'ulot darslarini amaliy ma'lumotlar asosida, muhokama va munozara asosida tashkil etishga imkoniyat yaratadi. Uslubiy qo'llanmaning o'rganilishi, o'z navbatida, yuridik shaxslarni soliqqa tortish tushunchasi, yuridik shaxslardan undiriladigan umumdavlat va mahalliy soliqlarni iqtisodiy mohiyati, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy printsiplarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan.

“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tish uchun tayyorlangan uslubiy qo'llanmaning asosiy maqsadi – talabalarda yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda ularni byudjetga to'lash tartibi, soliq solinadigan bazani aniqlash, soliq stavkalari va soliq imtiyozlarini qo'llash, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq hisob-kitoblarini rasmiylashtirish va taqdim etish bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat. Mazkur uslubiy qo'llanma orqali talabalar o'zini-o'zi mustaqil nazorat qilishi va bilimlarini joriy nazoratdan o'tkazishda foydalanilishlari mumkin. Shuningdek, mazkur uslubiy qo'llanmada soliq turlari va majburiy ajratmalarning hisob-kitoblariga tegishli ilovalar keltirilgan. Bu, o'z navbatida, talabalarga mustaqil ravishda soliq turlari va majburiy ajratmalarni hisoblashga amaliy yordam ko'rsatadi hamda bilimlarini yanada mustahkamlaydi.

1-MAVZU: “SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH (4-MODUL) “YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH” FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA METODI

Quyidagi atamalarga izoh bering: yuridik shaxs, to'lovlar, soliqlar, soliqqa tortish, soliq tizimi, soliq to'lovchilar, soliq xizmati, solikli va soliqsiz to'lovlar, davlat byudjeti, byudjet daromadlari, to'g'ri soliqlar, egri soliqlar, inflyatsiya, majburiy ajratmalar, soliq agenti.

NAZORAT SAVOLLARI

1. “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining predmeti nima?
2. “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi izohlang.
3. Soliqlar deganda nimani tushunasiz?
4. Soliqlar tizimi deganda nimani tushunasiz?
5. Soliqlar qaysi davlat organi tomonidan joriy qilinadi?
6. Umumdavlat soliqlari tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?
7. Mahalliy soliqlar tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?
8. Qaysi soliqlar mahalliy budjetlar o'rtasida taqsimlanadi va qanday tartibda?
9. Qaysi mahalliy soliqlar O'zbekiston Respublikasining butun hududida undiriladi?
10. Soddalashtirilgan soliq tizimiga qanday yuridik va jismoniy shaxslar o'tgan?
11. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini qachondan boshlab yagona soliq to'lovini to'lovchilari hisoblanishadi?
12. Budjetdan tashqari jamg'armalarni sanab bering?
13. Ijtimoiy soliq qaysi jamg'armalar o'rtasida taqsimlanadi?
14. Soliqlarni umumdavlat va mahalliy soliq'larga ajratishning sababi nimada deb o'ylaysiz?
15. Oborotdan olinadigan soliq'larga qaysi soliqlar kiradi?

16. Daromaddan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?

17. Mol-mulk va yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlarni kiritish mumkin?

18. Egri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Soliqlar – deganda.....

- a. davlat budjetiga undiriluvchi majburiy to'lovlar tushuniladi
- b. yuridik shaxslar tomonidan budjetga undiriladigan to'lovlar tushuniladi
- c. jismoniy shaxslar tomonidan budjetga to'lanadigan majburiy to'lovlar tushuniladi
- d. muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi

2. Soliq stavkalarining turlarini aniqlang.

- a. to'g'ri, egri, resurs
- b. o'sib boruvchi, bazaviy stavkalar, egri
- c. proporsional, progressiv, regressiv
- d. regressiv, qat'iy bo'lmagan, bazaviy stavkalar

3. Soliqqa tortishning qanday usullari mavjud?

- a. kadastrli, deklaratsiya, manba oldida soliqqa tortish
- b. to'g'ri va egri
- c. bevosita va bilvosita
- d. to'lov manbaida soliqqa tortish

4. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi printsiplarini ko'rsating.

- a. oddiylik va xolislik
- b. soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligi prezumptsiyasi
- c. tenglik, soliq stavkalarini qiyoslash
- d. tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish, hamma daromadlarni soliqqa tortish

5. Soliqlarning fiskal funksiyasi nimani anglatadi?

- a. soliqlar yordamida davlatning moliyaviy mablag'larni tashkil qilishni
- b. davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning

- iqtisodiy shart-sharoitini tartibga solishini
- c. ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatishini
 - d. soliqlar vositasida shakllangan daromadlar haqida axborot berishni

6. Resurs to'lovlariga qaysi soliqlar kiradi?

- a. yer solig'i, mol-mulk solig'i, foyda solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq
- b. yer solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
- c. yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
- d. transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq

7. Soliq agenti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a. zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalaridir
- b. zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir
- c. davlat soliq xizmati organlari
- d. boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari

8. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- a. 1991 yil 15 fevral
- b. 1997 yil 24 aprel
- c. 1997 yil 29 avgust
- d. 1993 yil 6 may

9. Soliqlarning qanday funktsiyalari mavjud?

- a. fiskal, tartibga solish, rag'batlantirish, nazorat, axborot bilan ta'minlash
- b. fiskal, tartibga solish, narxni belgilash, tannarxni kamaytirish
- c. foiz olish, rag'batlantiruvchi, nazorat, narxni belgilash, tannarxni kamaytirish
- d. foiz olish, tartibga solish, rag'batlantiruvchi, axborot bilan ta'minlash

10. Soliqlarning qanday o'ziga xos belgilari mavjud?

- a. majburiylik, davlat budjetiga tushishi, qat'iylik, ekvivalentsizlik

- b. majburiylik, foizlilik, muddatlilik
- c. muddatsizlik, noaniqlik, ekvivalentlik
- d. qaytarilishi, foizlilik, noaniqlik

11. Soliqlarning soliqqa tortish ob'ekti bo'yicha guruhlarini ko'rsating.

- a. oborotdan, daromaddan, mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar
- b. mahalliy soliqlar va umumdavlat soliqlari
- c. yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar, xarajatlariga qarab olinadigan soliqlar
- d. mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar

12. Soliqqa tortishning klassik tamoyillarini ko'rsating.

- a. tenglik, maqbullik, qulaylik, arzonlik
- b. qulaylik, tenglik, narxni oshirish, nazorat
- c. soliq stavkalarini qiyoslash
- d. arzonlik, maqbullik, tannarxni kamaytirish, nazorat

13. Soliq sub'ekti bu -

- a. Soliq to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar
- b. Soliq tulovchining daromadi, oborot va mol-mulk
- c. Soliq ob'ektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori
- d. Ob'ektning o'lchov birligi

14. Soliq ob'ekti qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- a. Soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan daromad, oborot va mol-mulk
- b. Yuridik va jismoniy shaxslar
- c. Soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha byeriladigan imtiyozlar
- d. Soliq to'lovchining daromadi

15. Soliqlar budjetga tushishiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- a. umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar
- b. egri va to'g'ri soliq
- c. umumdavlat soliqlari va resurs to'lovlari
- d. mahalliy soliqlar va resurs to'lovlari

16. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilayotgan ishonchli shaxs oddiy shirkat shartnomasi asosida birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishni boshlagan kundan e'tiboran necha kun ichida davlat soliq xizmati organida birgalikdagi faoliyat doirasida soliq majburiyatlarini bajaruvchi soliq to'lovchi sifatida hisobga turishi shart?

- a. 10 kun
- b. 5 kun
- c. 1 oy
- d. 6 oy

17. Soliq bazasi deganda -

- a. Soliq ob'ektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori tushuniladi
- b. Ob'ektning o'lchov birligi tushuniladi
- c. Ob'ektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yor tushuniladi
- d. Soliq to'lovchining to'laydigan soliqlar manbai tushuniladi

18. Soliq stavkalari nima?

- a. Ob'ektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilangan me'yor
- b. Soliq ob'ektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori tushuniladi
- c. Sub'ektlar uchun davlat tomonidan belgilangan soliq undirish me'yor tushuniladi
- d. Soliq solinadigan daromad, oborot va mol-mulk

19. Davr xarajatlariga kiritiladigan soliqlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a. Yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
- b. Yer solig'i, QQS va mol-mulk solig'i
- c. Yer solig'i, mol-mulk solig'i, yuridik shaxslarning undiriladigan foyda solig'i
- d. Yer solig'i, obodonlashtirish va infratuzilma rivojlantirish solig'i, mol-mulk solig'i

20. Soliq imtiyozlarining turlarini ko'rsating?

- a. To'liq ozod etish, vaqtincha ozod etish, qisman ozod etish
- b. Yuridik shaxslarni soliqdan ozod etish
- c. Jismoniy shaxslarni soliqdan ozod etish
- d. Butunlay va qisman ozod etish

2-MAVZU: FOYDA SOLIG'I

Quyidagi atamalarga izoh bering: yuridik shaxslarning foydasi, foyda solig'i, soliq to'lovchilar tarkibi, rezident va norezidentlar, foyda solig'i stavkasi, foyda solig'i ob'ekti, foyda solig'i imtiyozlari, foyda solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish muddatlari, foyda solig'i summasini to'lash muddatlari, jami daromadlar tarkibi, chegiriladigan xarajatlar, chegirilmaydigan xarajatlar, erkin almashtiriladigan valyuta, yalpi foyda, asosiy faoliyatdan olingan foyda, umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda, soliq to'langungacha bo'lgan baza.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Foyda solig'i O'zbekistonda qachon joriy qilingan?
2. Yuridik shaxslar foyda solig'ini to'lovchilari kimlar?
3. Rezident va norezident kimlar va ular qandan tartibda soliqqa tortiladi?
4. Soliq ob'ekti va soliqqa tortish bazasi qanday aniqlanadi?
5. Korxonaning moliyaviy faoliyat natijalari fanday aniqlanadi?
6. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqalashtirilgan?
7. Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalar uchun qanday stavkalar belgilangan?
8. Qanday yuridik shaxslar foyda solig'idan to'liq ozod etiladi?
9. Yuridik shaxslarning qanday foydasi yuridik shaxslar foyda solig'ini to'lashdan ozod etiladi?
10. Yuridik shaxslarning qanday xarajatlari soliqqa tortiladigan daromaddan kamaytiriladi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. Korxonada 1 chorak uchun faoliyat yakunlari bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlarga ega:

- mahsulotlarni, ishlarni, hizmatlarni sotishdan tushgan sof tushum -250000 ming so'm;
- davr xarajatlari 25800 ming so'm, shundan chegirilmaydigan xarajatlar -16000 ming so'm;
- moliyaviy faoliyatdan daromadlar (dividentlar)-18000 ming so'm;
- qiymati -820 ming so'mlik uskuna tekinga olingan;
- foyda soligi to'lagunga qadar foyda (Moliyaviy natijalar to'grisidagi hisobotni-240 satr)-124000 ming so'm;

Bunda Korxonada hisobot choragida ekologiya jamgarmasiga tekinga badal (500 ming so'm) va yo'sh oilalilar jumlasidan bo'lgan xodimlarning ipoteka kreditlarini qoplash bo'yicha badal (3 800 ming so'm) otkazdi.

Talab qilinadi:

- korxonaning soliq solinadigan foydasini aniqlang?

2-masala. Quyidagi ma'lumotlar asosida korxonaning budjetga to'laydigan foyda solig'i summasini aniqlang:

- tovar (ish, xizmatlar) realizatsiyasidan olingan sof tushum – 31920 (shundan, eksport faoliyatidan – 6700) ming so'm;
- foyda solig'i to'langunga qadar foyda – 5080 ming so'm;
- chegirilmaydigan xarajatlar umumiy summasi – 2056 ming so'm;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan dividendlar summasi – 750 ming so'm;
- soliq solinadigan foydani kamaytirish bo'yicha imtiyozlar – 1000 ming so'm.

Talab qilinadi:

-berilgan ma'lumotlar asosida foyda solig'i summasini aniqlang?

3-masala. Quyidagi ma'lumotlarga asosan foyda solig'ini hisoblang (ming so'm).

- mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum – 43800
- qo'shilgan qiymat solig'i – 6880
- atsiz solig'i – 5000
- sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi – 26950
- sotish xarajatlari – 350
- ma'muriy xarajatlar – 830
- asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad – 350
- olingan dividendlar – 750
- valyuta kursi bo'yicha musbat farq -290
- moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar – 150
- favqulodda foyda – 50
- chegirilmaydigan xarajatlar -312

soliq imtiyozlari -100.

Talab qilinadi: Berilgan ma'lumotlar asosida foyda solig'i summasini aniqlang?

4-masala. Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonada ikkinchi yil faoliyat yuritmoqda, uning foyda solig'i to'langunga qadar foydasi (2-son, 170-satr) 10500 ming so'm bo'lgan. Bundan tashqari korxonada bo'yicha quyidagi ma'lumotlar ham berilgan:

- hisobot davrida mahalliy davlat hokimiyati organlariga homiylik yordami ko'rsatilgan -1800 ming so'm;

- nuroniylar oromgohiga yordam ko'rsatish uchun – 900 ming so'm ajratilgan.

Talab qilinadi: Hisobot davri uchun korxonada to'lashi lozim bo'lgan foyda solig'i summasini aniqlang?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Yuridik shaxslarning foyda solig'i solish bazasini aniqlashda jami daromaddan tan olingan jarima va penya summalari chegirib tashlanadimi?

- a. chegirib tashlanadi
- b. chegirib tashlanmaydi
- c. faqat moliyaviy jarima summasi chegirib tashlanadi
- d. faqat penya summasi chegirib tashlanadi

2. Xayriya maqsadlariga o'tkazilgan mablag'lar soliqqa tortiladimi?

- a. soliqqa tortilmaydi
- b. soliq solinadigan foydaning 1 foizi miqdoridan oshgan qismi tortiladi
- c. soliq solinadigan foydaning 2 foizi miqdoridan oshgan qismi tortiladi
- d. soliq solinadigan foydaning 5 foizi miqdoridan oshgan qismi tortiladi

3. Yuridik shaxslarning mahsulot (ish, xizmat)larni eksporti hajmi umumiy sotish hajmida 30 foiz va undan yuqorini tashkil etsa, foyda solig'ini qanday stavkada to'laydilar?

- a. belgilangan stavka 10 foizga kamaytiriladi
- b. belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi
- c. belgilangan stavka 30 foizga kamaytiriladi
- d. belgilangan stavka 2 baravarga kamaytiriladi

4. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblashda soliq solinadigan baza qanday tartibda belgilanadi?

a. soliq solinadigan baza jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi

b. jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida boshqa qonunlarda, qarorlarda nazarda tutilgan imtiyozlar hamda soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi

c. tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar

sifatida belgilanadi

d. O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi sifatida belgilanadi

5. Yuridik shaxsning jami daromadlari tarkibini ko‘rsating?

a. realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo‘nak) tarzida olingan mablag‘lar

b. olingan grantlar va insonparvarlik yordami

c. tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar va boshqa daromadlar

d. sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta tovonini (sug‘urta summasi) tariqasida olingan mablag‘lar

6. Quyidagilardan qaysi biri soliq to‘lovchining daromadi sifatida qaralmaydi?

a. tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar

b. ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) ijara (lizing) to‘lovining qismi tariqasida olgan moliyaviy ijara (lizing) ob‘ekti qiymatining qoplamasi

c. inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar

d. majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar

7. Majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlarga qanday daromadlar kiradi?

a. soliq to‘lovchining budjet va davlat maqsadli jamg‘armalari oldidagi qarzining qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan summalari

b. asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlari

c. fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq da‘vo muddati o‘tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar; soliq to‘lovchi tekin olgan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar

d. fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq da‘vo muddati o‘tgan hisobdan

chiqarilgan majburiyatlar; sudning yoki vakolatli davlat organining qaroriga binoan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar

8. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan quyidagi qaysi yuridik shaxs ozod qilinadi?

- a. davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari
- b. notijorat tashkilotlari
- c. ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari
- d. ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar

9. Yuridik shaxslarning quyidagi qaysi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod etiladi?

- a. dengiz, daryo va havo kemalaridan, temir yo'l yoki avtomobil transporti vositalaridan xalqaro tashishlarda foydalanishdan olinadigan daromadlar
- b. oddiy shirkat shartnomasi asosida birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar
- c. asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar
- d. Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi

10. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?

- a. ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda
- b. ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda
- c. ortib boruvchi yakun bilan har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay
- d. ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning ikkinchi oyi 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda

11. Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi haqida ma'lumotnoma davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?

- a. joriy hisobot davri birinchi oyining 5-kunigacha
- b. joriy hisobot davri ikkinchi oyining 10-kunigacha
- c. joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha
- d. joriy hisobot davri ikkinchi oyining 5-kunigacha

12. Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining 200 baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to'lovchilar...

- a. joriy to'lovlarni to'lamaydi
- b. joriy to'lovlarni to'laydi
- c. joriy to'lovlarni ikki muddatga bo'lgan holda to'laydilar
- d. joriy to'lovlarni bir yilda bir marta to'laydilar

13. Auksionlar o'tkazishdan, tomosha-kontsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar foyda solig'ini qanday stavkada to'laydilar?

- a. 12%
- b. 10%
- c. 14%
- d. 9%

14. O'zbekiston Respublikasi norezidentining xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) qanday stavkada foyda solig'i solinadi?

- a. 6%
- b. 20%
- c. 10%
- d. 15%

15. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari ko'rsatgan xizmatlarini plastik kartalar qo'llanilgan holda to'langan hajmi bo'yicha foyda solig'ini qanday stavkada to'laydilar?

- a. bekor qilingan
- b. belgilangan stavka 15% ga pasaytiriladi
- c. umumbelgilangan stavkada
- d. belgilangan stavka 5% ga pasaytiriladi

3-MAVZU: QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

Quyidagi atamalarga izoh bering: qo'shilgan qiymat tushunchasi, soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, soliq stavkasi, nollik stavka, soliq imtiyozlari, import mahsulotlari uchun qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona yuk deklaratsiyasi, hisobvaraqq-fakturalar, qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lash, qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish, qo'shilgan qiymat solig'i summasini to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qaysi davlatda joriy etilgan?
2. Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?
3. Qo'shilgan qiymat solig'ini kimlar to'laydi?
4. Qo'shilgan qiymat solig'i ob'ekti qanday aniqlanadi?
5. Soliqqa tortiladigan oborot deganda nimani tushunasiz?
6. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va ularni qo'llash tartibi qanday?
7. Nollik stavka qaysi tovarlar (ish va xizmatlar)ga nisbatan qo'llaniladi?
8. Qanday tovarlar va mahsulotlar (ishlar xizmatlar) qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan?
9. Nollik stavka bilan imtiyoz o'rtasida qanday farq mavjud?

10. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash va hisobotni taqdim etish tartibi qanday?

11. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashni soddalashtirilgan tartibiga o'tish deganda nimani tushunasiz?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan korxonada 12000 ming so'mga qo'shilgan qiymat solig'i bilan 400 kg bo'yoq sotib olgan. Sotib olingan bo'yoqdan:

- 50 kg sifati yomon bo'lganligi uchun sotuvchiga qaytarib berilgan;
- 100 kg tekinga bolalar bog'chasiga berilgan;
- 20 kg korxonada klubini ta'mirlash uchun ishlatilgan;
- 180 kg ishlab chiqarish uchun ishlatilgan;

Talab qilinadi: Korxonada qo'shilgan qiymat solig'i qaysi qismini hisobga kiritish huquqiga ega?

2-masala. Yuridik shaxs qora choy tovarini import qilmoqda. Tovarni qiymati 32400 AQSH dollariga teng. Valyuta kursi 11400 so'm.

Bojxona yigimi 0,2%

Bojxona boji 10%.

Talab qilinadi: Import qilinotgan tovar uchun to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlang?

3-masala. Yillik hisobotni tekshirish jarayonida auditor buyurtmachi tomonidan raqobatbardosh korxonada sotib olinayotganligini aniqladi. Agar bu ma'lumotlar ma'lum bo'lsa, raqobatbardosh korxonada aksiyalari kursi oshadi. Auditor vositachi tomonidan korxonada aksiyalarini sotib olishga qarshi emas va shu tarzda u ko'proq foyda olish imkoniyatini qidirmoqda.

Talab qilinadi: Bunday holatda u o'zining professionallik majburiyatini buzmayaptimi? Holatlarni tahlil qiling.

4-masala. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lgan qayta ishlash korxonasi joriy yilda quyidagi ko‘rsatkichlarga ega:

- mahsulotni sotishdan tushgan tushum -24000 ming so‘m;
- bunda qaytarib berilishi lozim bo‘lgan idishning narxi -1500 ming so‘m;
- tekinga (tannarxi bo‘yicha) -100 ming so‘mlik maxsulot berilgan;
- olingan jarima summasi -30 ming so‘m;
- bankdan olingan foizlar -12 ming so‘m;
- 200 ming so‘mga korxonadan tomonidan nomoddiy aktivlar sotilgan (boshlang‘ich narxi -600 ming so‘m, to‘plangan amortizatsiya -420 ming so‘m);
- nolikvid xom-ashyo zaxiralari sotishdan tushgan tushum -96 ming so‘m, ularning tannarxi -85 ming so‘m;

Hisobvaraqa-faktura bo‘yicha olingan qo‘shilgan qiymat solig‘i:

- xom ashyo uchun -480 ming so‘m;
- ishlab chiqarish inshootlarini ijaraga berishdan -150 ming so‘m;
- uyali aloqadan -60 ming so‘m;

Talab qilinadi: Hisobot davrda budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini.

5-masala. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lgan korxonadan ko‘rpa tikib realizatsiya qiladi. Bitta ko‘rpaning tannarxi – 35 ming so‘m. Qo‘shilgan qiymat solig‘isiz bitta ko‘rpaning sotish narxi – 45 ming so‘m.

2018 yil hisobot davrida sotilgan ko‘rpalar:

- 300 tasi ichki bozorda sotilgan;
- 500 tasi erkin valyutaga eksport qilingan (45 ming so‘mga ekvivalent bo‘lgan narxda).

Bundan tashqari 10 tasi bolalar bog‘chasiga tekinga berilgan. 40 tasi korxonadan ishchi va xizmatchilariga 30 ming so‘mdan sotilgan. 5 tasi xodimlar bo‘limi boshlig‘ining tug‘ilgan kunida (yubiley) hadya qilingan.

Talab qilinadi: Sotish oborotlari bo‘yicha hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini aniqlang?

6-masala. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lgan korxonada bo'lgan narxi 340 AQSH dollari bo'lgan asbob-uskunani import qilmoqda. Bojxona deklaratsiyasini to'ldirish vaqtidagi 1 AQSh dollarining kursi 11400 so'mni tashkil etgan. Bojxona boji – 30 foiz, Aksiz solig'ining stavkasi – 10 foiz, bojxonada rasmiylashtiruv yig'imi bojxona qonunchiligida belgilangan tartibda hisoblangan.

Talab qilinadi: Import qilingan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasini va asbob-uskunaning haqiqatdagi tannarxini aniqlang?

7-masala. Xususiy korxonada tayyor mahsulotni qarzni uzish hisobiga bermoqda. Qarz summasi va tayyor mahsulot qiymati 5 000 ming so'mni tashkil qiladi.

Talab qilinadi: Qo'shilgan qiymat solig'i summasi necha so'mni tashkil qiladi?

8-masala. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan rezident korxonada Germaniyaning loyiha-konstruktorlik kompaniyasi bilan injiniring xizmatlari ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzdi. Loyiha konstruktorlik ishlari qiymati 35 ming AQSh dollarini tashkil etadi.

Loyiha-konstruktorlik ishlarini qabul qilish topshirish dalolatnomasi imzolanayotgan paytda 1 AQSh dollarining kursi 11400 so'mni va Germaniyaning loyiha-konstruktorlik kompaniyasiga pul mablag'lari o'tkazilgan paytda 11400 so'mni tashkil qilgan.

Talab qilinadi: O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan rezident korxonada injiniring xizmatlari xaridori hisoblanadi, norezident Germaniyaning loyiha-konstruktorlik kompaniyasining qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oboroti uchun kim tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i to'lanadi va qo'shilgan qiymat solig'i summasi necha so'mni tashkil qiladi ?

9-masala. Mebel ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonada boshqa bir korxonaga o'zi ishlab chiqargan mebelni tekinga bermoqda. Berilayotgan mebel tannarxi 8000 ming so'm. Qo'shilgan qiymat solig'i necha so'mni tashkil qiladi.

Talab qilinadi: Qo'shilgan qiymat solig'i summasi qanday tartibda to'lanadi?

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'IGA OID MUAMMOLI VAZIYATLAR VA ULARNING ECHIMI

1-muammoli vaziyat. QQS bilan birga xarid qilingan mol-mulk kamomadida aybdor shaxs soliqni qoplamaydi va uni hisobot davrida hisobga qabul qilinadigan summadan chiqarmaydi.

Vaziyatning echimi: Inventarizatsiya paytida QQS bilan birga 12 000 000 so'mlik tovar kamomadi aniqlandi. Ular xarid qilinganda QQS hisobga olingan edi. Aybdorga faqat 10 000 000 so'mni QQSsiz (2 000 000 so'm) to'lash talabi qo'yildi. Provodka Dt 5910; Kt 1010 - 10 000 000 so'm.

Mazkur holda etishmaydigan tovarlar realizatsiya bo'yicha soliq solinadigan oborotda ishtirok etmagan va ilgari hisobga olingan QQS joriy davrda hisobdan chiqarilishi (*Soliq kodeksi (SK)ning 218-moddasi*) va to'lashi uchun aybdor shaxsga taqdim etilishi kerak (Dt 5910; Kt 44 yoki Kt 64). Agar sud biror-bir sababga ko'ra QQSni to'lash talabini tan olmasa, mazkur summa davr xarajatlariga hisobdan chiqarilishi (Dt 9430; Kt 44) va foyda solig'i hisob-kitobi paytida chegirilmaydigan xarajatlarga kiritilishi kerak.

2-muammoli vaziyat. Davlat mulkini ijaraga berishdan daromadlar bo'yicha oborotga QQS solinadi yoki hisobga olinadigan QQSni kamaytirish uchun soliq solinmaydigan oborot sifatida soliq hisob-kitobiga kiritilmaydi.

Vaziyatning echimi: Vazirlar Mahkamasining «Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga (8.04.2009 yildagi 102-son) muvofiq davlat mulkini balansida saqlovchilar (DUKlar, byudjet tashkilotlari va hokazo) ijara shartnomalarini Davlat raqobat qo'mitasi (sobiq DMQ) huzuridagi Ijara markazlarida ro'yxatdan o'tkazishlari shart. SKning 208-moddasiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'idan, agar SKning 212-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, realizatsiya qilish oboroti ozod etiladi.

Shu tariqa, davlat mulki ijarasidan daromadlarga QQS solish kerak emas, biroq ularni Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobiga¹ 4-«Tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi bo'yicha oborotlar» ilovasining 01082-«Soliq solinmaydigan, 01021-

satrdagi ko'rsatilmagan» satri bo'yicha kiritish kerak. Etkazib beruvchilarga to'langan hisobga olinadigan QQS bunday daromadlar mavjud bo'lganda hisobot davri uchun oborotlar umumiy hajmida soliq solinmaydigan oborotlar ulushiga kamayadi va, tegishincha, byudjetga to'lanadigan QQS summasi ko'payadi. Ba'zi davlat korxonalarida davlat mulki ijarasi bo'yicha oborotlar xato ravishda QQS hisob-kitobiga kiritilmaydi va hisobga kiritiladigan soliqni tegishli ulushga kamaytirishmaydi. Bu esa QQSni kam hisoblash va tegishli moliyaviy sanksiyalarga olib keladi. Bunday xatoning sababi — buxgalterlar davlat mulkini ijaraga berishdan daromatlarni xizmatlarni realizatsiya qilish oborotlari deb hisoblashmaydi, balki QQS hisob-kitobiga kiritilmaydigan boshqa daromad deb biladilar.

3-muammoli vaziyat. QQS bo'yicha maqsadli imtiyoz tufayli tejalgan mablag'lar maqsadga ko'ra ishlatilmaydi.

Vaziyatning echimi: Vazirlar Mahkamasining qarori bilan korxonaga jamg'arilgan summalarni ishlab chiqarishni kengaytirish, respublika bo'yicha filiallar barpo etish va yangi texnologiyalarni joriy etish sharti bilan 3 yilga QQS to'lashdan ozod etilgan. Soliq imtiyozlari summasi Kt 8840-«Maqsadli ishlatish sharti bilan soliq imtiyozlari» bo'yicha hisobga olinadi va 3 yil o'tgach, balansda ushbu hisobvaraqning saldosi bo'ladi.

Imtiyozli davr mobaynida korxonaga yangi uskuna va nou-xaular sotib oldi, biroq xarajat summasini Dt 8840 dan Kt 8530-«Tekinga olingan mol-mulk»ning «Maqsadli soliq imtiyozlari» ilova hisobvarag'iga hisobdan chiqarmadi.

Filiallarni ochish xarajatlari (TIA ishlanmasi, konsalting, litsenziyalar, xodimlarning ish haqi, pudratchilarning xizmatlari va hokazo) joriy xarajatlarga hisobdan chiqarilib, bu bilan korxonaning soliq solinadigan foydasi kamaygan.

Imtiyozli davr uchinchi yilining oxirida 8840-hisobvaraqda QQS bo'yicha jamg'arilgan imtiyoz saldosi imtiyozdan foydalanilmaganligini ko'rsatadi. Bu esa nazorat qiluvchi organlarning hukumat qarori bajarilmaganligi xususida e'tirozlar bildirishi; penyani hisoblagan holda filiallar ochish bo'yicha xarajatlarga foyda solig'i solish, soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzganlik uchun ma'muriy jarima solish xatarlarini yuzaga keltiradi.

Mazkur holda Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlarni byudjetga to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to'g'risida nizomning 9-bandiga amal qilish kerak, unga ko'ra 8840-«Maqsadli ishlatish bilan soliq imtiyozlari» hisobvarag'ida hisobga olinadigan, soliqlar va bojxona imtiyozlarini berish natijasida bo'shagan mablag'lar summolari quyidagi tartibda hisobdan chiqariladi:

a) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy boyliklarni xarid qilishga, kredit va qarzlarni so'ndirishga, asosiy vositalarni rekonstruktsiya qilish va zamonaviylashtirishga yo'naltirganda, agar imtiyozli davr ko'rsatilgan bo'lsa - muddatlarning eng kami bo'yicha: imtiyozli davr yoki haqiqatda ishlatish tugaganda, imtiyozli davr ko'rsatilmagan hollarda esa - har yili:

8840-«Maqsadli ishlatish bilan soliq imtiyozlari» hisobvarag'i debeti;

8530-«Tekinga olingan mol-mulk» hisobvarag'i krediti, bunda «Soliqlar va bojxona imtiyozlari» hisobvarag'i ajratiladi;

b) joriy majburiyatlarning hosil bo'lishiga (masalan: ish haqining hisoblab yozilishi, ijara, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar va hokazo) olib keladigan joriy xarajatlarni qoplashga yo'naltirilganda:

8840-«Maqsadli ishlatish bilan soliq imtiyozlari» hisobvarag'i debeti;

6010-«Etkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraqlar» yoki 6120-«Shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga to'lanadigan hisobvaraqlar» yoxud 6710-«Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» yoki turli kreditorlardan qarzni hisobga olish hisobvarag'i (6900) krediti yoxud boshqa tegishli hisobvaraqlar.

4- muammoli vaziyat. Asosiy vositalar olib kirilganda (import qilinganda) bojxona organlariga to'langan QQS hisobga olinadi.

Vaziyatning echimi: BYuDda ko'rsatilgan soliq summasi (bojxona to'lovi kodi - 29) xato ravishda hisobga olinadi, biroq asosiy vositaning tannarxiga kiritilmaydi.

Xato sababi - 5-son BHMS «Asosiy vositalar» noto'g'ri qo'llanishi va SKning 219-moddasi «Hisobga olinmaydigan soliq summasi» talablarini buzish.

5- muammoli vaziyat. QQS hisob- kitobida nol stavkali oborotlar va

solliq solinmaydigan oborotlar o'z satrlarida aks ettirilmagan.

Vaziyatning echimi: Mazkur xato QQS bo'yicha boqimonda va jarima sanksiyalarini to'lashga, shuningdek realizatsiya qilingan mahsulotni va foyda solig'i hisob-kitobini buzib ko'rsatishga olib keladi.

6-muammoli vaziyat. Asosiy hisob-kitobda norezidentlar ishlari (xizmatlari) importiga QQS uning summasini byudjetga to'lamasdan hisobga olinadi.

Vaziyatning echimi: Hisobga olish uchun norezidentlar ko'rsatgan ishlar (xizmatlar) importiga QQS soliqning asosiy hisob-kitobi taalluqli bo'lgan davrda byudjetga to'lanishi kerak. Ko'pincha hisobga ishlar (xizmatlar) importiga QQS uni byudjetga to'lamasdan qabul qilinadi (hisoblab yozish usulida), bu esa soliq bo'yicha boqimonda va penyaga olib keladi.

Noto'g'ri:

Dt 4410 Kt 6410 - importga QQS hisoblab yozilgan;

DT 6420 KT 4410 - importga QQS asosiy hisob-kitobda hisobga olingan.

To'g'ri:

Dt 4410 Kt 6410 - importga QQS hisoblab yozilgan;

Dt 6410 Kt 5110 - importga QQS byudjetga to'langan;

Dt 6420 Kt 4410 - importga QQS asosiy hisob-kitobda hisobga olindi.

7-muammoli vaziyat. Ishlar (xizmatlar) importiga QQS bajarilgan ishlar (xizmatlar) dalolatnomasi bo'yicha emas, balki mablag'lar norezidentga to'langan paytda hisoblab yoziladi.

Vaziyatning echimi: Ko'pincha daromad norezidentga haqiqatda to'langanidan keyin ishlar (xizmatlar) importiga QQSni hisoblab yozadilar va unga doir hisob-kitobni topshiradilar. Bu esa soliqni o'z vaqtida to'lamaganlik uchun jarima sanksiyalariga olib keladi. Mazkur xato SKning 203-moddasini buzish hisoblanadi.

8-muammoli vaziyat. O'zi etishtirgan qishloq xo'jaligi mahsuloti realizatsiyasiga QQS solinadi.

Vaziyatning echimi: Yirik davlat kompaniyalari va korporatsiyalar, imkoni boricha, o'z xodimlarini o'zlari etishtirgan arzon mahsulot (go'sht, sut, sabzavot, baliq va hokazo) bilan ta'minlash uchun yordamchi xo'jaliklarni rivojlantirishlari shart (*VMning 22.12.2010 yildagi 05/03-10-1-son majlisi bayonnomasi*). Ushbu

maqsadlarda ko'p korxonalariga mahalliy hokimiyat organlari er uchastkalari ajratganlar va chorva mollari, don, urug'lik, o'g'it va hokazolarni sotib olishga ruxsat berganlar.

Ishlab chiqarilgan (etishtirilgan) mahsulot o'z xodimlari yoki uchinchi shaxslarga sotilganda xato ravishda etishtirilgan mahsulot qiymatiga QQS hisoblab yoziladi.

9-muammoli vaziyat. QQS to'lovchisi bo'lmagan yuridik shaxslarning hisobvaraqa-fakturalarida QQSni aks ettirish va hisobvaraqa-fakturalarni chala to'ldirish.

Vaziyatning echimi: QQS to'lovchisi bo'lmagan soliq to'lovchining hisobvaraqa-fakturasida QQS aks ettirilgan taqdirda mahsulot etkazib beruvchilarga hisobvaraqa-fakturada ko'rsatilgan QQS summasining 20%i miqdorida jarima solish nazarda tutilgan. Bunda mahsulot etkazib beruvchi hisobvaraqa-fakturada ko'rsatilgan soliq summasini byudjetga to'lashi shart (*SKning 118-moddasi*).

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchilarga nisbatan mazkur holda jarima solinmaydi va ular QQS bo'yicha byudjet bilan qayta hisob-kitob qilmaydi.

Hisobvaraqa-faktura rekvizitlarini to'liq to'ldirmaslik tovarlar (ishlar, xizmatlar) oluvchisi tomonidan hisobga olingan QQSning nazorat qiluvchi organlar tomonidan bekor qilinishiga olib keladi. Tovarlarni sotuvchisi SKning 222-moddasiga muvofiq hisobvaraqa-fakturani to'ldirishi kerak, unga ko'ra ushbu qat'iy hisobot hujjatida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- 1) hisobvaraqa-fakturaning tartib raqami va yozib berilgan sanasi;
- 2) hisobvaraqa-faktura ilova qilinadigan tovar jo'natish hujjatlarining yoki shartnomaning raqami va sanasi;
- 3) soliq to'lovchining va tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib oluvchining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda identifikatsiya raqami;
- 4) realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning nomi va o'lchov birliklari (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa);
- 5) o'lchov birligidan (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa) kelib chiqqan holda realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan

xizmatlarning hisobvaraqa-faktura bo'yicha soni (hajmi);

6) shartnoma (kontrakt) bo'yicha QQSni hisobga olmagan holda, QQSni o'z ichiga oladigan davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar (tariflar) qo'llanilgan taqdirda esa, soliq summasini hisobga olgan holda o'lchov birligiga to'g'ri keladigan narx (tarif);

7) realizatsiya qilinayotgan tovarlar, bajarilayotgan ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar jami sonining (hajmining) QQSsiz qiymati;

8) Aksizlanadigan tovarlar bo'yicha Aksiz solig'ining stavkasi va summasi;

9) tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) sotib oluvchisiga taqdim etilayotgan QQS stavkasi va summasi;

10) realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar jami sonining (hajmining) Aksizlanadigan tovarlar bo'yicha Aksiz solig'i va QQS hisobga olingan qiymati.

11) Bundan tashqari, hisobvaraqa-fakturada etkazib beruvchi va sotib oluvchining telefon raqamlari ham ko'rsatilishi kerak.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliqqa tortish ob'ekti nima?

- a. soliq solinadigan oborot va soliq solinadigan import
- b. muomala xarajatlari
- c. ishlab chiqarish tannarxi
- d. sof foyda

2. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qanday aniqlanadi?

- a. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritgan holda belgilanadi
- b. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati

asosida, unga qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmagan holda belgilanadi

c. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo‘shilgan qiymat solig‘i va Aksiz solig‘ini kiritgan holda belgilanadi

d. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi asosida

3. Tovarlar qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan baza qanday aniqlanadi?

a. qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati va qayta ishlashga berilgan xom-ashyoning qiymati asosida belgilanadi

b. qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritgan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati va qayta ishlashga berilgan xom-ashyoning qiymati asosida belgilanadi

c. qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida belgilanadi

qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritgan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida belgilanadi

4. Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan baza qanday belgilanadi?

a. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilgan shartnoma qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi

b. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi

c. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilgan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi

d. realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi

5. Chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadimi?

- a. soliq colinadigan oborot bo'lmaydi
- b. ozod etilgan
- c. 20%
- d. 0%

6. Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi qanday aniqlanadi?

- a. hisobga olinadigan soliq summasi sifatida
- b. soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinmaydigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida
- c. soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinadigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida
- d. realizatsiya qilingan tovarlar, ishlar, xizmatlarga hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i sifatida

7. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan import tovarini belgilang.

- a. O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxatida mavjud bo'lmagan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlarni kiritish
- b. qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha yog'och-taxta materiallari va yog'och
- c. jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan me'yorlari doirasidan tashqari olib kirilayotgan tovarlar
- d. davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan tijorat maqsadida olib kirilayotgan tovarlar

8. Qanday hollarda hisobvaraqq-faktura taqdim etilishi shart?

- a. qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan yuridik shaxslar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi shaxsga
- b. yo'lovchilar tashishni yo'l chiptalari bilan rasmiylashtirish jarayoniga

c. tovarlar (ishlar, xizmatlar) aholiga naqd pulda realizatsiya qilingan hollarda sotib oluvchiga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi cheki, terminal cheki, kvitantsiya berish holatiga

d. tovarlarning eksport-import tarzida etkazib berilishini rasmiylashtirish jarayoniga

9. Xalqaro yo‘nalishda tashishlar bo‘yicha ko‘rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizatsiya qilish oborotiga qanday stavkada qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadi?

- a. 0%
- b. 20%
- c. 10%
- d. 15%

10. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha quyidagi qaysi hollarda soliq to‘lovchining soliq solinadigan bazasiga tuzatish kiritiladi?

- a. tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda
- b. soliq to‘lovchining soliq solinadigan bazasiga tuzatish kiritilmaydi
- c. ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko‘rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilganda
- d. hisobvaraq-faktura yozib berilganda

4-MAVZU: AKSIZ SOLIG'I

Quyidagi atamalarga izoh bering: aksiz solig'i, soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, aksiz solig'i stavkasi, soliq imtiyozlari, import mahsulotlari uchun aksiz solig'i, dal, aksiz markasi, aksiz solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish, aksiz solig'i summasini to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Aksiz solig'i qachon joriy etilgan?
2. Aksiz solig'i to'lovchilari qanday guruhlanadi?
3. Aksiz osti tovarlarini aniqlash mezonlari qanday?
4. Aksiz solig'i ob'ekti nimalardan iborat?
5. Aksiz solig'ining bazasi qanday aniqlanadi?
6. Qanday hollarda aksiz to'lanadigan tovarlarga aksiz solig'i solinmaydi?
7. Aksiz solig'i stavkalari va aksizosti tovarlar ro'yxati kim tomonidan belgilanadi?
8. Aksiz solig'ini hisobga olish tartibi qanday?
9. Aksiz solig'i hisobini taqdim etish va soliqni to'lash muddatlari qanday?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. Korxonada aroq mahsulotini ishlab chiqarmoqda. Hisobot davrida korxonada 20 ming butilka (0,5 litrdan) aroq mahsulotini ishlab chiqargan. Aroq mahsulotida spirtning hajmi (quvvati) 40 foizni tashkil etadi.

Talab qilinadi: 20 ming butilka aroq mahsuloti uchun korxonada budjetga qancha Aksiz solig'i to'laydi?

2-masala. Aksiz osti tovari bo'lgan mahsulot bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan Aksiz solig'ini hisoblang, agarda korxonaning bir dona mahsulot ishlab chiqarishi uchun barcha xarajatlari -21180 ming so'mni, foyda me'yori - 25 foizni, Aksiz

solig'i stavkasi – 25 foizni tashkil etsa.

Talab qilinadi: Aksiz solig'i summasini aniqlang?

3-masala. Import qilinayotgan 1 litr aroq mahsulotining (Germaniyada ishlab chiqarilgan) bojxona qiymati – 80 ming so'm. Bojxona qiymati o'z ichiga yukni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, ortish, tushirish, o'lchash va sug'urta qilish va boshqa summalarni oladi.

Talab qilinadi: Import qiluvchi korxonaning firma do'konida mazkur bir butilka aroq mahsuloti necha so'mdan sotiladi, agarda korxonaning qo'shimcha xarajatlari aroq mahsulotini omborga olib kelishga va boshqa zarur xarajatlarni (sertifikatsiya qilish va h.k) olingan tovarning haqiqiy tannarxiga ya'ni bojxona qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqilgan (Aksiz va qo'shilgan qiymat soliqlarini hisobga olgan holda), nisbatan taxminan 12 foiz (ushbu harajatlarni hisobga olmagan holda), savdo ustamasi – 15 foiz. Ushbu masalani echishda bojxona bojlari hisobga olinmaydi.

4-masala. Quyidagi ma'lumotlarga asosan Aksiz solig'i summasini hisoblang (ming so'm):

- korxonaning hisobli bahosi – 41200
- mahsulot uchun belgilangan soliq stavkasi – 29 foiz.

Talab qilinadi: Aksiz solig'i summasini aniqlang?

5-masala. Quyidagi ma'lumotlarga asosan aksiz solig'i va QQSni hisoblang (ming so'm):

- hisobot davrida xarid qilingan xomashyo va materillar qiymati – 1800;
- korxonaning hisobli bahosi – 5000;
- mahsulot uchun belgilangan soliq stavkasi – 11 foiz.

Talab qilinadi: Aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlang?

6-masala. Aroq tayyorlaydigan korxonada 2022 yilda Aksiz to'lanadigan alkogol mahsuloti 40% o'tkirlikdagi 0,5 litr sig'imli "Zima" markali aroqni 1000 butilka miqdorida realizatsiya qildi.

Talab qilinadi: Realizatsiya qilingan alkogol mahsuloti bo'yicha aksiz solig'i

summasi qanday tartibda hisoblanadi?

7-masala. Zargarlik buyumlarini ishlab chiqaradigan korxonada 2022 yilda aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i hisobga qabul qilinmagan holda qiymat bo'yicha umumiy summasi 180 000 ming so'mga teng zargarlik buyumlarini realizatsiya qildi.

Talab qilinadi: Aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i summasi necha so'mga teng?

8-masala. Korxonada Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan 1800 kub. sm dvigatelining hajmiga ega bo'lgan "Gazel" markadagi yangi avtomobil keltirdi. Aksiz osti tovarining bojxona qiymati 15 ming AQSh dollar. AQSh dollari kursi BYUD rasmiylashtirilgan kunda 10900 so'mni tashkil qilgan. BYUD 2021 yil 15 fevralda rasmiylashtirilgan.

Talab qilinadi: Import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovar uchun bojxona to'lovlari qanday tartibda hisoblanadi?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

- a. 1991 yil
- b. 1992 yil
- c. 1995 yil
- d. 1998 yil

2. Aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i to'lovi hisobiga kiritiladimi?

- a. kiritiladi
- b. faqat alkogolli mahsulotlar uchun kiritiladi
- c. kiritilmaydi
- d. faqat tamaki mahsulotlari uchun kiritiladi

3. O'zbekiston Respublikasida aksiz markalari qachon joriy etilgan?

- a. 1992 yil 1 yanvar
- b. 1993 yil 6 may
- c. 1995 yil 1 yanvar
- d. 1996 yil 1 oktyabr

4. Aksiz solig'ini to'lash muddatlarini ko'rsating.

- a. har oyda hisobot oyidan keyingi o'zining 10 kunidan kechiktirmay

- b. har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay
- c. joriy oyning 15, 25 kunidan va kelgusi oyning 5 kunidan kechiktirmay
- d. joriy oyning 13, 23 kunidan va kelgusi oyning 3 kunidan kechiktirmay

5. Aksiz solig'ining to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?

- a. oddiy shirkat Aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini zimmasiga yuklatilgan sherigi
- b. davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar
- c. O'zbekiston Respublikasi hududiga o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar
- d. tovarlarni eksport qiluvchi yuridik shaxslar

6. Aksiz solig'i quyidagilarning qaysilariga solinmaydi?

- a. Aksiz to'lanadigan tovarlarning eksportiga
- b. Aksiz to'lanadigan tovarlarning importiga
- c. berilgan xom ashyodan tayyorlangan mahsulotga
- d. Aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirishga

7. Qayta ishlashga berilgan xom-ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza qanday qiymatni o'z ichiga oladi?

- a. aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini
- b. aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini
- c. tovarlarning naturada ifodalangan hajmini
- d. qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini

8. Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza nima asosida belgilanadi?

- a. tannarx asosida
- b. bojxona qiymati asosida
- c. bojxona qiymati va bojxona boji asosida
- d. shartnomada ko'rsatilgan qiymat asosida

9. Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilanganda soliq bazasi qanday aniqlanadi?

- a. aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida
- b. aksiz to'lanadigan tovarlarning qiymatiga nisbatan foizlarda

- c. bojxona hududida belgilangan qiymat asosida
- d. aksizosti tovar ishlab chiqaruvchi belgilagan qiymat asosida

10. Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati ... qarori bilan tasdiqlanadi.

- a. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
- b. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- c. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi
- d. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

11. Aksiz solig'i to'lovchilari tomonidan Aksiz solig'ining hisob-kitobi qanday muddatda taqdim etiladi?

- a. har oyda soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay
- b. yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay
- c. har oyda soliq davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay
- d. yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay

12. Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha Aksiz solig'i qanday muddatlarda to'lanadi?

- a. aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi
- b. yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay to'lanadi
- c. aksiz markalari olingandan so'ng to'lanadi
- d. har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay to'lanadi

13. "Jeneral Motors O'zbekiston" YoAJ ishlab chiqargan avtomobillarga qanday miqdorda aksiz solig'i solingan?

- a. 3%
- b. 11%
- c. 25%
- d. 26%

14. Aksiz solig'i qanday soliqlar guruhiga kiradi?

- a. egri soliqlar
- b. resurs soliqlari
- c. bonuslar

d. to'g'ri soliqlar

15. Aksiz solig'i to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?

- a. O'zbekiston Respublikasi hududida Aksiz solig'i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar
- b. tovarlarni eksport qiluvchi yuridik shaxslar
- c. notijorat tashkilotlari
- d. O'zbekiston Respublikasi hududiga o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar

5-MAVZU: AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ

Quyidagi atamalarga izoh bering: aylanmadan olinadigan soliq, qat'iy soliq, soliq stavkasi, yalpi tushum, yalpi daromad, mikrofirma va kichik korxonalar, bo'nak, soliq to'lovchilar, soliq ob'ekti, soliq bazasi, soliq imtiyozlari, preferentsiya, soliqlarni to'lash muddatlari, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini soliq amaliyotida tatbiq etishning zarurligi nimada?
2. Soliq amaliyotida ilk bor qachon soddalashtirilgan soliq rejimi joriy qilingan va qaysi me'yoriy hujjat asosida?
3. Kichik biznes sub'ektlari tarkibi qaysi mezonlar asosida belgilanadi?
4. Aylanmadan olinadigan soliq qachon joriy etildi?
5. Aylanmadan olinadigan soliq bilan yagona soliq to'lovining farqi nimada?
6. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilari kimlar?
7. Aylanmadan olinadigan soliqning stavkalari qanday mezonlar asosida belgilanadi?
8. Qanday yuridik shaxslar yagona soliq to'lovidan imtiyozga ega?
9. Aylanmadan olinadigan soliq budjetga qanday muddatlarda to'lanadi?

10. Qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari kimlar?

11. Qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari qanday holatda boshqa to'lovlarni to'lashi mumkin?

12. Qat'iy belgilangan soliqning stavkalari qaysi mezon asosida tabaqalashtiriladi?

13. Qat'iy belgilangan soliq miqdorini budjetga to'lash davri qanday?

14. Tadbirkor faoliyatini vaqtincha to'xtatganda qanday tartibda hujjatlarni rasmiylashtiradi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. “Sayqal” nomli sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan kichik korxonadan 2022 yil 1-chorak davomida sotilgan poyabzal mahsulotlaridan kelgan tushum miqdori (yalpi tushum) 25 000 ming so'mni tashkil etgan.

Talab qilinadi: Berilgan ma'lumotlarga asosan aylanmadan olinadigan soliqni hisoblang?

2-masala. “Nur” nomli lak-bo'yoq mahsulotlarini ishlab chiqaradigan kichik korxonadan 2022 yilda mahsulot sotishdan tushgan tushum miqdori (yalpi tushum) 82 000 ming so'mni tashkil etgan. Shundan 25 000 ming so'mlik mahsulotlar eksport qilingan.

Talab qilinadi: Berilgan ma'lumotlarga asosan aylanmadan olinadigan soliqni hisoblang?

3-masala. Qurilish mahsulotlarini ishlab chiqaradigan kichik korxonadan 2022 yil 1-chorak davomida mahsulot(tovar) realizatsiyasidan kelgan tushum miqdori (yalpi tushum) 72 800 ming so'mni tashkil etgan.

Talab qilinadi: Berilgan ma'lumotlarga asosan aylanmadan olinadigan soliqni hisoblang?

4-masala. Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchisi bo'lgan ishlab chiqarish korxonasi joriy yilda quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan:

- o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum – 65000 ming

so'm;

- davlat qimmatbaho qog'ozlaridan olingan daromad – 350 ming so'm;
- valyuta hisobvaraqlari bo'yicha, shuningdek chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi ijobiy farq – 52 ming so'm;
- valyuta hisobvaraqlari bo'yicha, shuningdek chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi salbiy farq – 45 ming so'm;
- sud qarori bilan korxonaga undirib berilgan jarima summasi – 250 ming so'm;
- da'vo muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning hisobdan chiqarilgan summasi – 550 ming so'm;
- tekinga olingan mol-mulk qiymati – 280 ming so'm.

Talab qilinadi: Hisobot davri uchun aylanmadan olinadigan soliq summasini aniqlang?

5-masala. Aylanmadan olinadigan soliq va qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan ishlab chiqarish korxonasi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar berilgan:

- tovar (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushum (QQS bilan) – 650000 ming so'm;
- asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushum – 66000 ming so'm (asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati 100000 ming so'm, hisoblangan amortizatsiya summasi – 50000 ming so'm);
- mol etkazib beruvchilar tomonidan xo'jalik shartnomasiga muvofiq to'lab berilgan jarima summalari – 250 ming so'm;
- binoni ijaraga berishdan olingan daromadlar – 25000 ming so'm.

Talab qilinadi: Hisobot davri uchun byudjetga hisoblangan va to'langan aylanmadan olinadigan soliq va qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlang?

6-masala. Toshkent shahrida ro'yxatdan o'tgan chakana savdo korxonasi hisobot davrida 35600 ming so'mlik mahsulot sotgan. Shu jumladan, 24800 ming so'mlik mahsulot plastik kartalar orqali to'lov terminallaridan foydalangan holda sotilgan. Sotilgan tovarlarning xarid qiymati 29800 ming so'mni tashkil etadi.

Bundan tashqari savdo korxonasi quyidagi ko'rsatkichlarga ham ega:

- asosiy vositalar ob'ekti realizatsiya qilingan – 380 ming so'm (boshlang'ich qiymat – 1000 ming so'm, hisoblangan amortizatsiya summasi – 640 ming so'm);
- muddati o'tgan deponent qarzdorlik hisobdan chiqarilgan – 360 ming so'm;
- valyuta hisobvaraqlari bo'yicha, shuningdek chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi ijobiy farq – 120 ming so'm;
- valyuta hisobvaraqlari bo'yicha, shuningdek chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi salbiy farq – 140 ming so'm;

Talab qilinadi: Hisobot davri uchun aylanmadan olinadigan soliq summasini aniqlang?

7-masala. Savdo korxonasi shartnoma qiymati 50 ming AQSh dollari bo'lgan shokolad qandolat mahsulotini import qilmoqda. Olingan tovarning bojxona qonunchiligi bo'yicha aniqlangan bojxona qiymati 55 ming AQSh dollarini tashkil etmoqda. Bojxona yuk deklaratsiyani rasmiylashtirish vaqtidagi 1 AQSh dollarining so'mga nisbatan ayirboshlash kursi 11400 so'mni tashkil etadi.

Bojxona bojining stavkasi 10 foiz, bojxonada rasmiylashtiruv yig'imi esa 0,2 foizni tashkil etadi

Talab qilinadi: Savdo korxonasi tomonidan to'lanadigan bojxona to'lovlari summasini aniqlang?

8-masala. Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi aylanmadan olinadigan soliq to'lovchisi bo'lgan korxonada bo'yicha joriy yilda quyidagi ma'lumotlar berilgan:

- tovar (ish, xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum - 65000 ming so'm;
- tovar (ish, xizmat)lar tannarxi – 48000 ming so'm;;
- davr xarajatlari -3500 ming so'm;

Talab qilinadi: Joriy davr uchun aylanmadan olinadigan soliqning summasini hisoblang?

9-masala. Ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi korxonada shartnoma bo'yicha kontrakt qiymati 400 ming AQSh dollari bo'lgan shokolad qandolat mahsulotni import bo'yicha oldi.

Olingan tovarning bojxonadagi qiymati 460 ming dollar. Bojxona deklaratsiyani rasmiylashtirish vaqtidagi kursi 1 AQSh dollari 11400 so'm.

Import bojxona bojining stavkasi 10%, bojxona hujjatlarini rasmiylashtirilgani uchun undiriladigan yig'im - 0,2 foiz, tovar muyyan bir mamlakatda ishlab chiqarilganligi bo'yicha kelib chiqishiga doir sertifikat bilan tasdiqlanmagan.

Talab qilinadi:

- import bojxona bojining qiymati necha so'mga teng?
- olingan tovar partiyasining haqiqiy tannarxini aniqlang?
- ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi korxonada to'langan qo'shilgan qiymat solig'i uning hisobotida qanday aks ettiriladi?

10-masala. Birlashgan Arab Amirliklaridan 8 ming AQSh dollarga soatlar partiyasi olindi.

Talab qilinadi: Agarda bojxona deklaratsiyasini to'ldirilgan vaqtda dollar kursi 1 AQSh dollari uchun 11400 so'mni tashkil etgan va import bojxona bojining stavkasi 30 foiz bo'lsa, u holda tovar necha so'mga teng bo'lishini aniqlang?

1-muammoli vaziyat. **Aylanmadan olinadigan soliqni to'laydigan korxonada asosiy vositalar ob'ektini qoldiq qiymat (185 ming so'm) bo'yicha sotmoqda. Qo'shimcha baholash saldosini (8510 – “Mol-mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar” hisobvarag'ining krediti) 68,3 ming so'mni tashkil etadi. Yagona soliq to'lovini qanday summadan hisoblash kerak? Yalpi tushumga avvalgi qo'shimcha baholashning 8510-hisobvaraqli krediti bo'yicha qayd etiladigan saldosini kiritiladimi?**

Vaziyatning echimi. Yagona soliq to'loviga tortish ob'ekti bo'lib yalpi tushum hisoblanadi, uning tarkibiga kichik korxonalarining asosiy vositalari va

boshqa mol-mulkini sotishdan olingan daromadlar (asosiy faoliyatga doir boshqa daromadlar) ham kiritiladi. Daromad sotishdan olingan tushum bilan sotiladigan asosiy vositalarning qoldiq qiymati o'rtasidagi farq sifatida shakllantiriladi, bunda qayta baholash saldosi hisobga olinadi. Ya'ni sotishdan olgan daromadingiz 68,3 ming so'mni tashkil etadi, tegishincha, yagona soliq to'lovining summasi 8879 so'mni ($68300 \times 0,13$) tashkil etadi.

2-muammoli vaziyat. Men yagona soliq to'lovchisi hisoblangan xususiy tibbiy muassasaning muassisi va direktoriman. O'z kvartiramni yashash uchun mo'ljallanmagan joylar fondiga o'tkazdim va 2003 yil aprelida uni tibbiy muassasa balansiga tekinga topshirdim. Soliq to'g'risidagi qonunlarga ko'ra tibbiy muassasalar yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan. Biroq materiallarni davlat kadastrida rasmiylashtirish chog'ida mendan 2005 yil 1 iyulgacha yer uchun ijara haqini to'lashni talab qilishmoqda. Holbuki men shartnoma tuzmaganman. Bunday talab to'g'rimi?

Vaziyatning echimi. Soliq kodeksi 102-moddasining 2-bandiga muvofiq sog'liqni saqlash muassasalari yer solig'ini to'lashdan ozod qilingan. Doimiy foydalanishga berilgan, shuningdek ulardan foydalanish huquqi korxonalar, bino va inshootlarga bo'lgan mulk huquqi birga o'tgan yer uchastkalari yer solig'i solinadigan ob'ekt hisoblanadi.

"Davlat yer kadastrida to'g'risida"gi qonunning 13-moddasiga muvofiq egalik qilishi, foydalanishi, ijarada, shuningdek mulkida yer uchastkalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar ularga bo'lgan huquqlarini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishlari shart.

Sizning tibbiy muassasangiz, xatdan ko'rinishicha, ko'p kvartirali uyda joylashgan. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 21-moddasida "birgalikda egalik qilinadigan yoki foydalaniladigan yer uchastkalari" tushunchasi keltirilgan. Ana shu me'yordan kelib chiqib, tibbiy muassasa uy-joy mulkdorlari bilan birgalikda uy-joy band etgan yer uchastkasidan foydalanadi, ya'ni maydondagi o'z hissasining yeridan foydalanuvchisi hisoblanadi. Shu bois tibbiy muassasa yer uchastkasidagi hissaga bo'lgan o'z huquqini ro'yxatdan o'tkazishi kerak. Toshkent shaxrida yer

uchastkalariga doir huquqlarni tumanlarning yer resurslari va davlat kadastri bo'yicha bo'limlari ro'yxatdan o'tkazadi.

Xatga qaraganda, tibbiy muassasangiz unga doir biror-bir hujjatlarga ega bo'lmasdan yer uchastkasi hissasidan foydalangan. Shu bois tumanning yer resurslari va davlat kadastri bo'limi yerdan foydalanish huquqiga doir hujjatlarni rasmiylashtirishingizni talab qiladi. Hujjatlarni rasmiylashtirish doimiy foydalanish huquqlarida yoki ijara huquqlarida amalga oshirilishi mumkin.

"Uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida"gi qonunning 10-moddasiga muvofiq uylar atrofidagi yer uchastkalari shirkatga doimiy foydalanish huquqi asosida beriladi. Ushbu me'yordan kelib chiqib va turar joy maydoni tibbiy muassasaga mulk qilib berilganini hisobga olib, u bilan birga tibbiy muassasaga doimiy foydalanish huquqida yer uchastkasi xissasi ham o'tgan deb xulosa chikarish mumkin. Qonunning ushbu me'yori munosabati bilan siz yer resurslari va davlat kadastri bo'limiga yer uchastkasi hissasidan doimiy foydalanish huquqida foydalanilayotganini isbotlashingiz kerak bo'ladi. Zero uy-joy egallab turgan butun yer uchastkasini doimiy foydalanishga, uning hissasini esa ijaraga berish mumkin emas. Yer uchastkasi hissasi doimiy foydalanish huquqida rasmiylashtirilgan taqdirda tibbiy muassasa yer solig'ini to'lashdan ozod qilinadi. Biroq foydalanish shakli masalasini baribir yer uchastkasiga doir huquqni ro'yxatdan o'tkazadigan yuqorida ko'rsatilgan bo'limlar hal qiladi.

Agar uning qaroriga qo'shilmasangiz, xo'jalik sudiga murojaat qilishingiz mumkin. Agar u tibbiy muassasa yer ijarasi shartnomasini tuzishi kerak deb qaror qilsa, siz shunday qilishga va byudjetga shartnomaga ko'ra ijara haqi to'lashga majbur bo'lasiz, chunki tibbiy muassasalar ijara haqini emas, balki yer solig'ini to'lashdan ozod qilinganlar.

Darvoqe, Prezidentning 2005 yil 20 iyundagi "Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-3620-son Farmoni 5-bandiga ko'ra yagona soliq to'lovini to'lovchilar 2005 yil 1 iyuldan boshlab qonun hujjatlariga muvofiq ijaraga olingan yer uchastkalari uchun byudjetga ijara haqi to'lashdan ozod qilinadi.

3-muammoli vaziyat. **“Energotexservis” MChJ 2005 yil 1 iyundan xususiy korxonaga aylantirildi. Ushbu sanaga jamg’arilgan taqsimlanmagan foyda 221913,7 ming so’nni tashkil etdi. Hozirgi vaqtda XK dividendlarni jamg’arilgan foydaning butun summasidan, ya’ni 1995 yildan taqsimlashni rejalashtirmoqda.**

Bizning korxonamizga 2003 yil 11 dekabrda 558-II-son “Xususiy korxonaga to’g’risida”gi qonunda nazarda tutilgan imtiyoz, ya’ni soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar to’langanidan keyin xususiy korxonaning olgan foydasi uning mulkdori tasarrufiga kelib tushishi va soliqqa tortilmasligi tatbiq etiladimi?

Vaziyatning echimi. 2003 yil 11 dekabrda 558-II-son “Xususiy korxonaga to’g’risida”gi qonunda nazarda tutilgan imtiyozni siz “Energotexservis” MChJ qayta tashkil etilishi natijasida “Energotexservis” XK balansiga kelib tushgan jamg’arilgan foydani, ya’ni 1995 yildan boshlab olingan foydani taqsimlash chog’ida qo’llay olmaysiz. Ushbu imtiyoz faqat foydaning xususiy korxonaga 2005 yil 1 iyundan boshlab olgan qismiga tatbiq etiladi.

4-muammoli vaziyat. **Yagona soliq to’lovchi ishlab chiqarish korxonasi 2005 yil 1 iyundan boshlab ulgurji savdoni amalga oshirish huquqiga ruxsat guvohnomasi oldi. Biroq, amalda o’tgan davrda savdo faoliyatini yuritmadi. Korxonaga mol-mulk solig’i to’lashi kerakmi?**

Vaziyatning echimi. Yagona soliq to’lovi to’lovchisi bo’lgan ishlab chiqarish korxonasi savdo faoliyatini yuritmaganligini, tegishincha, yalpi daromaddan soliq to’lamaganligini hisobga olganda, ushbu davr uchun mol-mulk solig’ini ham to’lashi kerak emas. Agar yuridik shaxslar asosiy faoliyatdan tashqari ulgurji savdoni amalga oshirsalar, mazkur faoliyat turi bo’yicha ular alohida hisob yuritishlari va savdo korxonalari uchun belgilangan soliqlarni to’lashlari kerak.

5-muammoli vaziyat. **Qishloq xo’jaligi korxonasi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotini etishtirish hamda sotish bilan shug’ullanadi (XXTUT - 21210) va byudjetga yagona yer solig’i to’laydi. Tushuntirib bersangiz, korxonaga go’ngni boshqa xo’jaliklarga sotganda; da’vo muddati tugagach kreditorlik karzini hisobdan chiqarishda qanday soliqlarni to’lashi kerak? Ushbu**

operatsiyalar alohida hisob yuritish va boshqa soliqlar (yagona yer solig'i emas) to'lash lozim bo'lgan faoliyatning boshqa turlari hisoblanadimi?

Vaziyatning echimi. Yo'q, hisoblanmaydi. Sanab o'tilgan barcha operatsiyalar asosiy faoliyatingizni amalga oshirish bilan bog'liq, shu sababli ular bo'yicha alohida hisob yuritish va "boshqa" soliqlar to'lash kerak emas. Siz belgilangan soliq solish ob'ekti sizga qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanish yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi maydoniga muvofiq yagona yer solig'i to'lashingiz kerak.

6-muammoli vaziyat. Korxonamiz yagona soliq to'lovi to'lovchisi hisoblanadi. Yagona soliq to'lovi hisob-kitob qilinganda soliq solinadigai bazaga uni tekinga bergan taqdirda uskunani qayta baholash saldosi kiritiladimi? Yagona soliq to'lovi qaysi summadan hisoblanadi?

Vaziyatning echimi. Mol-mulk tekinga berilganda soliq solish ob'ekti bo'lib qonunga muvofiq qayta baholashni hisobga olgan holda uning balans bo'yicha qoldiq qiymati hisoblanadi.

7-muammoli vaziyat. Yagona soliq to'lovchi kichik ishlab chiqarish korxonasi 2004 yilda ishlarni bajarishga davlat subsidiyasini oldi. Olingan summami biz yalpi tushum tarkibiga kiritmadik va yagona soliqqa tortmadik (subsidiya olish shartlariga muvofiq). 2005 yil 1 iyuldan boshlab yagona soliq to'lovini hisoblab chiqish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga* muvofiq yagona soliq to'lovini to'lashga o'tdik, uning 13-bandida ta'kidlanishicha, yalpi tushum tarkibidan davlat subsidiyalari summasi chiqarib tashlanar ekan.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash tartibida (Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son qarori bilan tasdiqlangan) bunday band yo'q edi. Bundan, 2004 yilda olingan, biz yagona soliqni hisoblab chiqayotganda soliq solinadigan bazaga kiritmagan subsidiya summasi bo'yicha yagona soliqni hisoblab chiqish chog'ida xatoga yo'l qo'yganmiz degan ma'no kelib chiqadimi?

Vaziyatning echimi. To'g'ri, siz haqiqatan xatoga yo'l qo'ygansiz. Subsidiya summasi yagona soliq to'lashingiz davrida yalpi tushumga kiritilishi va belgilangan stavka bo'yicha yagona soliqqa tortilishi kerak edi.

8-muammoli vaziyat. **Savdo korxonasi amalga oshiradigan konsignatsiya operatsiyalari bo'yicha majburiy to'lovlarning ajratmalar ob'ekti bo'lib nima hisoblanishini tushuntirib bersangiz. Xususan, savdo korxonasi konsignatsiya shartnomasi bo'yicha olingan tovarni 18 mln. so'mga sotgan bo'lsa (xaridor tomonidan konsignator hisobraqamiga to'langan), Yo'l jamg'armasi, Pensiya jamg'armasi va maktab ta'limini rivojlantirishga ajratmalarni qanday hisob-kitob qilish kerak? Konsignatsiya tovarining qiymati konsignant hujjatlari bo'yicha 12 mln. so'm (balansdan tashqari hisobvaraqqa kirim qilinadi), komission haq summasi - 1,5 mln. so'm. Ya'ni korxonada 18 mln so'mdan faqat 1,5 mln. so'm komission haq summasini qoldiradi, qolgan barcha summani 5 bank kuni mobaynida konsignantga o'tkazadi.**

Vaziyatning echimi. Konsignatsiya shartnomalari bo'yicha ham savdo korxonalarini uchun Yo'l jamg'armasi, Pensiya jamg'armasi va maktab ta'limini rivojlantirishga ajratmalar ob'ekti bo'lib tovar aylanmasi (sotish)ning butun hajmi hisoblanadi. Ya'ni yuqorida aytilgan jamg'armalarga majburiy ajratmalarni ajratmalarning belgilangan stavkalari bo'yicha sotish summasidan (18 mln. so'm) hisoblash zarur.

9-muammoli vaziyat. **Yagona yer solig'i to'lovchisi bo'lgan korxonada quyidagi boshqa daromadlarga ega: musbat kurs farqi va tekinga moliyaviy yordam. Korxonada birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma bo'yicha ham daromad oladi. Yuqorida sanalgan daromadlarga soliq solish tartibi qanday?**

Musbat kurs farqi va tekinga moliyaviy yordam ko'rinishidagi daromadlar yagona yer solig'i to'lovchilari tomonidan hisob-kitobga kiritilishi kerak emas, chunki u boshqa baza bo'yicha - qishloq xo'jaligi yerlari hamda jamoat imoratlari va hovlilari band etgan yerlarning (Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlaridagi korxonalarda) yoki mazkur yer uchastkalari maydonining (qolgan viloyatlar uchun) me'yoriy qiymati bo'yicha hisoblab chiqariladi.

Birgalikdagi faoliyatga doir shartnoma bo'yicha olinadigan daromadlar bo'yicha siz alohida hisob yuritishingiz va qonun hujjatlarida soliq to'lovchilarning tegishli toifasi uchun nazarda tutilgan soliqlarni to'lashingiz kerak.

10-muammoli vaziyat. **“Hayot Nashr” MChJ “Suvsoz” trestidan ishlab chiqarish tsexi uchun yerto’ladagi xonani ijaraga olib, yer solig’ini uning hisob-kitobiga binoan ijara haqi tarkibida to’laydi. Prezidentning 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-son Farmoniga binoan (5-band) yagona soliq to’lovini to’lovchi kichik korxonalar yer uchun ijara haqi to’lashdan ozod qilingan. Agar yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasini tuzmagan bo’lsak, mazkur band bizning tashkilotga taalluqli bo’ladimi?**

Vaziyatning echimi. Prezidentning 2005 yil 20 iyundagi “Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag’batlantirish borasidagi qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida” PF-3620-son Farmoniga binoan berilgan imtiyoz Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va davlat hokimiyati mahalliy organlarining qarorlariga ko’ra ijaraga olingan yer uchastkalariga tatbiq etiladi. Sizning korxonangiz yerni ijaraga olish shartnomasini tuzmagan, shu sababli ham yuqorida ko’rsatilgan imtiyozni sizlar qo’llay olmaysiz. Korxonangiz uchun “Suvsoz” tresti tomonidan belgilangan va siz shartnoma bo’yicha to’laydigan ijara haqining summasi va tarkibiy qismlarini trestning muayyan xarajatlari (shu jumladan ijaraga oluvchilar qoplaydigan soliqlarni to’lash bo’yicha ham) hamda foyda sifatida kiritish mumkin.

MAVZU BO’YICHA TESTLAR

1. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kiradigan soliq to’lovchilar tomonidan qo’shilgan qiymat solig’i summasi budjetga qachon o’tkaziladi?

- a. har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay
- b. har oyda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay
- c. har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay
- d. har oyda hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay

2. Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan ijtimoiy soliqning hisob-kitobi qanday muddatda taqdim etiladi?

- a. har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

- b. har oyda soliq davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay
- c. yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay
- d. yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

3. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun aksiz solig‘i bo‘yicha soliq davrini aniqlang?

- a. bir oy
- b. bir chorak
- c. olti oy
- d. bir yil

4. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha hisobot davrini aniqlang?

- a. chorak
- b. o‘n kun
- c. oy
- d. yil

5. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun ijtimoiy soliqni hisoblab chiqarish bo‘yicha hisobot davrini aniqlang?

- a. bir oy
- b. o‘n kun
- c. bir chorak
- d. bir yil

6. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qaysi soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi?

- a. yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq
- b. yagona soliq to‘lovi, yer solig‘i, yer qa‘ridan foydlanganlik uchun soliq
- c. yagona soliq to‘lovi, Aksiz solig‘i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq
- d. yagona soliq to‘lovi, yer solig‘i hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq

7. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni to'laydilar mi?

- a. to'lamaydilar
- b. belgilangan tartibda to'laydilar
- c. past stavkalarda to'laydilar
- d. ro'yxatdan o'tgan davrdan boshlab ikki yil muddatga ozod etiladi

8. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari quyidagi qaysi hollarda soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritadilar?

- a. tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda
- b. fors-major holatlarida
- c. soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga tuzatish kiritilmaydi
- d. soliq to'lovchining bankdagi hisobraqamida etarli mablag' bo'lmasa

9. Savdo korxonalariga qo'llaniladigan soliq stavkalarini tabaqalanishining asosiy mezonini ko'rsating.

- a. joylashgan joyi va aholi soni
- b. ustav kapitali miqdori
- c. ishchilar soni
- d. yalpi tushum hajmi

10. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari to'laydigan soliqlarni ko'rsating.

- a. aylanmadan olinadigan soliq
- b. yer va mol-mulk solig'i
- c. yalpi daromadidan soliq va mol-mulk solig'i
- d. obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i

11. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun aylanmadan olinadigan soliqni to'lash muddatlarini ko'rsating.

- a. har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmasdan
- b. har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 5 kunidan kechiktirmasdan
- c. bir yilda bir marta, hisobot yilidan keyingi yilning 10 fevralidan kechiktirmasdan
- d. joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay — joriy oyning birinchi o'n kunligi

uchun; joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay — joriy oyning ikkinchi o‘n kunligi uchun; kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay — hisobot oyining qolgan kunlari uchun

12. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha imtiyozlar nazarda tutilganmi?

- a. imtiyozlar nazarda tutilmagan
- b. davlat ro‘yxatidan o‘tgan davrdan boshlab uch yil muddatgacha
- c. imtiyozlar nazarda tutilgan
- d. davlat ro‘yxatidan o‘tgan davrdan boshlab ikki yil muddatga

13. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha hisob-kitoblarni qanday muddatlarda taqdim etadi?

- a. har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmasdan
- b. har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 5 kunidan kechiktirmasdan
- c. bir yilda bir marta, hisobot yilidan keyingi yilning 25 fevralidan kechiktirmasdan
- d. joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay - joriy oyning birinchi o‘n kunligi uchun; joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay - joriy oyning ikkinchi o‘n kunligi uchun; kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay - hisobot oyining qolgan kunlari uchun

14. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to‘lashni tanlashga haqlimi?

- a. haqli emas, ular uchun faqat soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qo‘llaniladi
- b. haqli
- c. faoliyatining dastlabki iiki yil mobaynida haqli
- d. haqli emas, ular uchun umumbelgilangan soliqlar to‘lash tartibi qo‘llaniladi

15. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o‘tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar mol-mulk solig‘ini to‘lovchilar hisoblanadimi?

- a. mol-mulk solig‘ini to‘lovchilari hisoblanmaydi

- b. mol-mulk solig'ini belgilangan tartibda to'laydilar
- c. faqat asosiy vositalari bo'yicha to'laydilar
- d. ijaraga berilgan mol-mulklari qiymatidan soliq to'laydilar

16. Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilari davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni to'laydilarmi?

- a. to'lamaydilar
- b. belgilangan tartibda to'laydilar
- c. past stavkalarda to'laydilar
- d. ro'yxatdan o'tgan davrdan boshlab ikki yil muddatga ozod etiladi

17. Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilari qo'shilgan qiymat solig'ini.....

- a. ixtiyoriy ravishda to'laydilar
- b. pasaytirilgan stavkada to'laydilar
- c. umum belgilangan tartibda to'lashga majbur
- d. nollik stavkada to'laydilar

18. Aylanmadan olinadigan soliqda soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi:

- a. budjetdan berilgan subsidiyalar
- b. ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul mukofoti summasi
- c. o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan tushgan tushum
- d. balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo

19. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lash muddatlarini aniqlang

- a. har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmasdan
- b. har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmasdan
- c. bir yilda bir marta, hisobot yilidan keyingi yilning 5 fevralidan kechiktirmasdan
- d. joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay — joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun; joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay — joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun; kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay — hisobot oyining

qolgan kunlari uchun

20. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar yagona soliq to'lovi to'lash muddatini kechiktirish huquqiga egami?

- a. bunday huquqqa ega, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yil muddatga
- b. bunday huquqqa ega emas
- c. bunday huquqqa ega, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga
- d. bunday huquqqa ega, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran olti oy muddatga

6-MAVZU: YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

Quyidagi atamalarga izoh bering: yer osti boyliklari, texnogen hosilalar, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ob'ekti, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar, bonuslar, imzoli bonus, tijoratbop topilma bonusi, royalti, rentals

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortishning zarurligi nimada?
2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumi asosan qaysi yer osti qazilma boyliklari hissasiga to'g'ri keladi?
3. Respublikamizda eng yirik soliq to'lovchilar jumlasiga qaysi korxonalar kiradi?
4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining asosiy qismi respublikamizning qaysi hududlari hissasiga to'g'ri keladi?
5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilar kimlar?
6. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish ob'ekti va bazasi qanday aniqlanadi?
7. Hozirgi vaqtda yer osti qazilma boyliklarning nechta turiga nisbatan soliq

stavkalari belgilangan?

8. Soliq kodeksida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilganmi?
9. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi qanday muddatlarda davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi?
10. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq qanday muddatlarda to'lanadi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. Neft qazib oluvchi korxonada hisobot davrida 1200 tonna neft qazib olgan. Korxonada qayta ishlab 6400 ming so'mga (QQS va Aksiz solig'isiz) realizatsiya qilgan.

Talab qilinadi: *Korxonaning hisobot davrida to'lashi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang.*

2-masala. Ko'mir qazib oluvchi korxonada hisobot davrida 1800 tonna ko'mir qazib olgan va uning 45 foizini 8600 ming so'mga realizatsiya qilgan.

Talab qilinadi: *Korxonaning to'lashi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.*

3-masala. Korxonada hisobot davrida 500 tonna temir rudasini qazib olib, uning bir qismini 7400 ming so'mga QQS bilan realizatsiya qilgan.

Talab qilinadi: *Korxonaning to'lashi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.*

4-masala. "Bekobod tsement" hisobot oy mobaynida tsementni turli narxlarda realizatsiya qildi. Chunonchi, 10 tonna tsementni tonnasini 150.000 so'mdan, 20 tonna tsementni esa 200.000 so'mdan sotildi. Bir oy ichida jami 30 tonna tsement 5.500.000 so'mga realizatsiya qilindi. Tsementning hisob-kitob narxi 1 tonna uchun 120.000 so'mni tashkil qiladi.

Talab qilinadi: Yuqoridagi ma'lumotlar asosida qo'shimcha foyda solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza va soliq summasini aniqlang.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a. Oliy majlis senati tomonidan
- b. Vazirlar mahkamasi tomonidan
- c. O'zbekiston respublikasi prezidenti tomonidan
- d. Oliy majlis qonunchilik palatasi tomonidan

2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilarni aniqlang.

- a. yuridik va jismoniy shaxslar
- b. foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar
- c. yuridik shaxslar
- d. jismoniy shaxslar

3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisoblash tartibini aniqlang.

- a. hudud hokimiyatlari tomonidan hisoblanadi
- b. yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq alohida ruxsatnomaga ega bo'lgan yuridik shaxs tomonidan hisoblanadi
- c. yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq moliya organlari tomonidan hisoblanadi
- d. yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq uni to'lovchilar tomonidan mustaqil hisoblab chiqariladi

4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solinadigan bazasini belgilang.

- a. ajratib olingan tayyor mahsulot hajmining o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymat
- b. jismoniy shaxslar yer uchastkalari doirasida o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar hajmi
- c. foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning mahsulotni

sotishdan tushgan tushumi

- d. jismoniy shaxslar yer uchastkalari doirasida kavlab olgan keng tarqalgan foydali qazilmalar qiymati

5. Yer qa'ridan foydalanuvchilar qanday soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar?

- a. qo'shimcha foyda solig'i
- b. yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
- c. yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, qo'shimcha foyda solig'i va bonuslar
- d. imzoli va tijoratbop bonuslar

6. Bonus ta'rifi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- a. yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan har yillik to'lov
- b. yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan har oylik to'lov
- c. yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan har choraklik to'lov
- d. yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lov

7. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasi budjetga qachon o'tkaziladi?

- a. har oyda hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay
- b. har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay
- c. har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay
- d. har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

8. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qaysi muddatlarda taqdim etiladi?

- a. har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay
- b. har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay
- c. har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay
- d. har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

7-MAVZU: SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

Quyidagi atamalarga izoh bering: suv resurslari, er osti va er usti suvlari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, soliq ob'ekti, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar, suv uchun limit, suv hajmini hisoblash uchun asboblari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan ko'zda tutilgan maqsad nima?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari kimlar?
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning davlat budjetiga ta'minlab beradigan asosiy soliq to'lovchilarni bilasizmi?
4. Soliqqa tortish ob'ekti qanday tartibda aniqlanadi?
5. Soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida belgilangan?
6. Qanday yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliqdan ozod etiladi?
7. Soliq qaysi muddatdan kechiktirmay davlat budjetiga o'tkaziladi?
8. Yer usti suv manbalariga qaysi suv resurslari kiradi?
9. Yer osti suv manbalariga qaysi suv resurslari kiradi?
10. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitoblari qaysi muddatda soliq organiga taqdim etiladi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. Toshkent shahar “Suvsoz” bo'limining bergan ma'lumotlariga ko'ra shahar vodoprovod tarmog'iga suv 86% yer usti va 14% yer osti manbalaridan kelib tushadi. Faraz qilaylik, korxonaga bir oy davomida 12 ming kub metr suv olgan.

Talab qilinadi: *Korxonaga davlat byudjetiga suv resurslaridan foydalanligi uchun o'tkazishi lozim bo'lgan soliqni hisoblang?*

2-masala. Sanoat korxonasi hisobot davrida jami 30000 kub metr suv resurslaridan foydalanib bo'lib, shundan 40 foizi yer osti manbalaridan, qolgan qismi esa yer usti manbalaridan olingan.

Talab qilinadi: *Korxonaga to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq summasini hisoblang.*

3-masala. Elektrostantsiya hisobot davrida 450000 kub metr yer usti suv resurslaridan, 50000 kub metr yer osti suv resurslaridan foydalanib bo'lgan.

Talab qilinadi: *Korxonaga to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq summasini hisoblang.*

4-masala. Kommunal xo'jaligi hisobot davrida 150000 kub metr hajmida aholi punktlarini suv bilan ta'minlagan. Shuningdek o'z iste'moli uchun 25000 kub metr yer usti suv resurslaridan foydalanib bo'lgan.

Talab qilinadi: *Korxonaga to'lashi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq summasini hisoblang.*

5-masala. Sanoat korxonasi Mirzo Ulug'bek tumani DSIda ro'yxatga olingan. Korxonaga hisobot davrida Qibray tumani hududidagi suv resurslaridan (yer usti manbalaridan) 40000 kub metr, o'zi joylashgan tuman yer osti suv manbalaridan 15000 kub metr foydalanib bo'lgan.

Talab qilinadi: *Korxonaning hisobot davrida to'lashi lozim bo'lgan suv*

resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang va korxonada soliq hisob-kitobini qaysi tuman DSIga taqdim etadi va soliqni to'laydi.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlang?

- a. yer usti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi
- b. foydalanilgan suvning hajmi
- c. yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi
- d. chuchuk suv manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi

2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ektini aniqlang.

- a. yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari
- b. yer usti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari
- c. yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari
- d. chuchuk suv manbalaridan foydalanilgan suv

3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad:

- a. ishlab chiqarish sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash
- b. mahsulot narxini pasaytirish
- c. mahsulot tannarxini pasaytirish
- d. davlat budjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va suv resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag'batlantirish

4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi yuridik shaxslar tomonidan davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatlarda taqdim etiladi?

- a. har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay
- b. yilda bir marta hisobot davrining 1 dekabrighacha
- c. yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda
- d. yilda bir marta hisobot davrining 1 iyunighacha

5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilarini aniqlang.

- a. notijorat tashkilotlari
- b. o'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, norezidentlar
- c. barcha yuridik va jismoniy shaxslar
- d. yagona yer solig'i to'lovchilari

6. Suv resurslarining yer osti manbalariga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

- a. daryolar, ko'llar
- b. kanallar va hovuzlar
- c. suv omborlari
- d. skvajinalar

7. Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

- a. vertikal va gorizontaal drenaj tarmoqlari
- b. artezian quduqlari
- c. daryolar, ko'llar
- d. skvajinalar

8. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi (yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklaridan tashqari) qanday aniqlanadi?

- a. suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida
- b. davlat soliq xizmati organlari ma'lumotlari asosida
- c. davlat bojxona xizmati organlari ma'lumotlari asosida
- d. suv etkazib beruvchi yuridik shaxslar ma'lumotlari asosida

9. Soliq kodeksida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan ozod etish bo'yicha imtiyozlarni aniqlang.

- a. suv uchun budjetga soliq to'lagan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar
- b. xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar
- c. savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar
- d. vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar

10. Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?

- a. har oyda keyingi oyning 25 kundan kechiktirmay
- b. har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 25 kundan kechiktirmay
- c. joriy soliq davrining 15 dekabrigacha
- d. yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda

8-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN YER SOLIG'I

Quyidagi atamalarga izoh bering: yer maydonlari, sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yer maydonlari, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i ob'ekti, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i to'lovchilari, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i summasini to'lash muddatlari, ortiqcha yer uchastkalari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yer solig'ini joriy etishdan maqsad nima?
2. Yer solig'ining huquqiy asoslari O'zbekistonda qachon shakllangan?
3. O'zbekistonda yer fondi qanday tarkib topgan?
4. Kimlar yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi?
5. Alohida soliq rejimiga o'tgan yuridik shaxslar yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadimi?
6. Yer solig'ini undirish ob'ekti nima?
7. Qanday yerlar soliq solinmaydigan yer uchastkalari hisoblanadi?
8. Yer solig'i stavkalarini tabaqalashtirish mezonlarini ayting.

9. Qanday yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadi?
10. Yer solig'ini hisoblab chiqarish va budjetga to'lash muddatlari qanday belgilangan?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. Toshkent shahrining 2 zonasida joylashgan ishlab chiqarish korxonasiga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 5.5 ga ni tashkil etadi.

Talab qilinadi: *Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang.*

2-masala. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonaga 2020 yil 18 dekabrda ro'yxatdan o'tgan, ushbu korxonaga 2021 yil 15 mart qabul qilish dalolatnomasiga asosan O'zbekiston tomoni korxonaning ustav jamg'armasiga jamg'arma sifatida ishlab chiqarish sexini bergan.

Talab qilinadi: *Ishlab chiqarish sexi egallagan yer uchastkasi uchun qaysi davrdan boshlab va kim tomonidan yer solig'i to'lana boshlanishi kerak?*

3-masala. Toshkent shahrining 3 zonasida joylashgan ishlab chiqarish korxonasiga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 4.5 ga. ni tashkil etadi.

Talab qilinadi: *Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang va to'lash muddatlarini belgilang.*

4-masala. Zarafshon shahrida joylashgan korxonaga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 2.75 ga, haqiqiy foydalanilinishdagi yer maydoni esa 3.5 ga ekanligi aniqlandi.

Talab qilinadi: *Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang.*

5-masala. Toshkent shahrining 2 zonasida joylashgan ishlab chiqarish korxonasiga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 0.8 ga. ni tashkil etadi. Davlat soliq xizmati xodimlari tomonidan aniqlanishicha korxonaning amalda foydalanishda 1.2 ga yer uchastkasi mavjud.

Talab qilinadi: *Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang.*

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Yer solig'ini joriy etishdan ko'zlangan maqsadlarni ko'rsating.

- a. davlat byudjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash, yer resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag'batlantirish
- b. yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni tartibga solish
- c. yuridik shaxslarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish
- d. byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash

2. Yer solig'ini to'lash yuridik shaxslar tomonidan qanday muddatlarda amalga oshiriladi?

- a. yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar
- b. yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 25-kuniga qadar
- c. har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay
- d. har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay

3. Yer solig'ini to'lashdan quyidagi qaysi yuridik shaxslar ozod qilinadi?

- a. madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari
- b. savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar
- c. ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar
- d. mikrofirma va kichik korxonlar

4. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar tatbiq etiladimi?

- a. tatbiq etiladi
- b. tatbiq etilmaydi
- c. yer uchastkalari ijaraga olingan oydan e'tiboran ikki yil mobaynida tatbiq etiladi
- d. qisman tatbiq etiladi

5. Yer uchastkalarini Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar tatbiq etiladimi?

- a. tatbiq etiladi
- b. pasaytiruvchi koeffitsientlar qo'llaniladi
- c. qisman tatbiq etiladi
- d. tatbiq etilmaydi

6. Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda yer solig'i qanday stavkalarda to'lanadi?

- a. yer solig'i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi
- b. yer solig'i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkaning ikki baravari miqdorida to'lanadi
- c. yer solig'i stavkasining ikki baravari miqdorida to'lanadi
- d. yer solig'i stavkasining uch baravari miqdorida to'lanadi

7. Quyidagilarni qaysi biri yer solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi?

- a. soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga yuridik shaxslar
- b. ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari
- c. foydalanish huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar
- d. tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan er uchastkalari bo'yicha notijorat tashkilotlari

8. 2023 yilda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq stavkalarini qo'llashda Qorqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi shahar va qo'rg'onlar necha zonaga bo'lingan?

- a. zonalar bekor qilinib, yagona bazaviy stavka belgilandi
- b. 2 zonaga
- c. 3 zonaga
- d. 4 zonaga

9. 2023 yilda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq stavkalarini qo'llashda Toshkent shahri necha zonaga bo'lingan?

- a. 5 zonaga
- b. 7 zonaga
- c. 10 zonaga
- d. 15 zonaga

10. Yuridik shaxslar yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanish qancha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

- a. yer solig'i summasining to'rt baravari miqdorda
- b. yer solig'i summasining uch baravari miqdorda
- c. yer solig'i summasining besh baravari miqdorda
- d. yer solig'i summasining bir yarim baravari miqdorda

9-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ

Quyidagi atamalarga izoh bering: mol-mulk tarkibi, o'rtacha yillik qoldiq qiymat, o'rtacha yillik qiymat, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ob'ekti, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasini to'lash muddatlari, qayta baholash, indeks, asosiy vosita, ko'chmas mulk.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qachon joriy etilgan va uni joriy etishdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?
2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ahamiyati qanday?
3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari kimlar?
4. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning ob'ekti va bazasi qanday aniqlanadi?
5. Korxonalar mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymati) qanday tartibda aniqlanadi?
6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkalari qanday belgilangan?
7. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan kimlar imtiyozga ega?

8. Soliq idoralariga qaysi muddatlarda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha hisob-kitob topshiriladi?
9. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qanday muddatlarda to'lanadi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. 2022 yil 1 yanvar holatiga mol-mulk solig'i to'lovchi korxonada asosiy vositalar bo'lmagan. 13 yanvarda korxonada 580 ming so'mga kompyuter, 25 martda esa 220 ming so'mga printer sotib olgan.

Talab qilinadi: *Aniqlang, 2021 yil birinchi chorak uchun mol-mulk solig'ini hisoblang?*

2-masala. Korxonada mol-mulking o'rtacha qoldiq qiymati 8000 ming so'mni tashkil etadi, bundan:

-me'yoriy muddatlarda tugatilmagan qurilishning qiymati –2000 ming so'm;

-2500 ming so'mni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan konservatsiya qilingan.

Joriy davr uchun umumiy tushum 25300 ming so'm, bundan korxonada 5400 ming so'mlik o'z mahsulotini erkin valyutaga eksport qilgan.

Talab qilinadi: *Aniqlang, joriy davr uchun mol-mulk solig'i necha so'mni tashkil etadi?*

3-masala. Korxonada asosiy vositalarining 31 yanvar holati buyicha qiymati 800 ming sumni tashkil etib, aprel oyining birinchi un kunligida yana 150 ming so'mlik asosiy vosita kiritilgan. Asosiy vositalarning eskirish qiymati 31 yanvar holatiga 100; 28 fevral holatiga 115; 31 mart holatiga 130 ming so'mni tashkil etadi.

Talab qilinadi: *Ushbu ma'lumotlarga asosan korxonada mol-mulk solig'ini hisoblang (1-chorak uchun).*

4-masala. Yuridik shaxs oktyabr oyining so'ngi o'n kunligida ta'sis etilgan. Uning asosiy vositalari 845 ming so'mni tashkil etadi. Korxonada mulki yangi bo'lganligi uchun eskirish hisoblanmagan. Har bir oy uchun o'rtacha ularning

boshlang'ich qiymatidan 10% eskirish hisoblanadi.

Talab qilinadi: *Ushbu ma'lumotlarga asosan mol-mulk solig'ini hisoblang.*

5-masala. Korxonada asosiy vositalarining 31 yanvar holati bo'yicha qiymati 4350 ming sumni tashkil etib, 10 fevralda 150 ming so'mlik qiymatdagi asosiy vositalar kirim qilindi va 20 fevralda 250 ming so'm qiymatdagi asosiy vositalar realizatsiya qilindi. Asosiy vositalarning eskirish qiymati 31 yanvarga 500, 28 fevralga 600, 31 martga 750 ming so'mni tashkil etadi.

Talab qilinadi: *Ushbu ma'lumotlarga asosan mol-mulk solig'ini hisoblang.*

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Qaysi javobda mol-mulk solig'ining soliqqa tortish ob'ekti berilgan.

- asosiy vositalar, normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar
- pul mablag'lari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, muddatida ishga tushirilmagan uskunalar
- sosiy vositalar, kapital qo'yilmalar
- kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar, muddatida ishga tushirilmagan uskunalar

2. Quyidagilarning qaysi biri mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi?

- solih solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar
- O'zbekiston Respublikasi hududida mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari
- O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining norezidentlaridir
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan notijorat tashkilotlari

3. Mulk qilib olingan yer uchastkalari va (yoki) nomoddiy aktivlar tarkibida hisobga olinadigan ulardan foydalanish huquqi mol-mulk solig'i solish ob'ekti sifatida qaraladimi?

- solih solish ob'ekti sifatida qaralmaydi
- solih solish ob'ekti sifatida qaraladi va belgilangan stavkada soliqqa tortiladi
- solih solish ob'ekti sifatida qaraladi va belgilangan stavkaning 30 foizi miqdorida soliqqa tortiladi
- solih solish ob'ekti sifatida qaraladi va belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida soliqqa tortiladi

4. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini soliqqa tortiladigan bazasini aniqlang.

- a. asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati
- b. asosiy vositalarning eskirish summasi
- c. asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati
- d. asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati

5. Yuridik shaxslarning mol-mulklaridan soliq qanday stavkada undiriladi?

- a. 2%
- b. 8%
- c. 9%
- d. 15%

6. Norezident yuridik shaxslar tomonidan mol-mulk solig'i qaysi muddatda to'lanadi?

- a. hisobot davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmasdan
- b. hisobot davridan keyingi yilning 5 fevralidan kechiktirmasdan
- c. har oyning 15 kunidan kechiktirmasdan
- d. har oydan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmasdan

7. Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq bo'yicha hisobot davrini aniqlang?

- a. kalendar yil
- b. chorak
- c. 10 kun
- d. oy

8. Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchi belgilangan shakldagi ma'lumotnomani davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etadi?

- a. joriy yilning 10 yanvarigacha
- b. joriy yilning 1 fevraligacha
- c. joriy yilning 20 yanvarigacha
- d. joriy yilning 1 apreliyigacha

9. Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq bo'yicha soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) qanday tartibda aniqlanadi?

a. hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida

b. hisobot davridagi har bir oyning birinchi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan

summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida

c. hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning to'rtdan bir qismi sifatida

d. hisobot davridagi har bir oyning birinchi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning to'rtdan bir qismi sifatida

10. Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliqning hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga qanday muddatda taqdim etiladi?

a. ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi

b. har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi

c. ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi

d. yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi

10-MAVZU: YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN YIG'IMLAR

Quyidagi atamalarga izoh bering: ijtimoiy soliq, ijtimoiy sug'urta badali, majburiy yig'im, maqsadli jamg'armalarga to'lanadigan majburiy ajratmalar ob'ekti, maqsadli jamg'armalarga to'lanadigan majburiy ajratmalar to'lovchilari, maqsadli jamg'armalarga to'lanadigan majburiy ajratmalar stavkalari, maqsadli jamg'armalarga to'lanadigan majburiy ajratmalar bo'yicha imtiyozlar, maqsadli jamg'armalarga to'lanadigan majburiy ajratmalar summasini to'lash muddatlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ijtimoiy soliq to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanishadi?
2. Fuqarolarning ish haqidan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallarining to'lovchilari kimlar?

3. Yuridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lovchilari bo'ladimi?
4. Ijtimoiy soliq mablag'lari qanday miqdorda va tartibda taqsimlanadi?
5. Ijtimoiy soliq va sug'urta badallarining ob'ekti va bazasi qanday aniqlanadi?
6. Ijtimoiy soliqni va sug'urta badallari qanday tartibda hisoblab chiqariladi?
7. Mikrofirma va kichik korxonalar Ijtimoiy soliqni va sug'urta badallarini qaysi muddatda to'lashadi?
8. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?
9. Notijorat tashkilotlari qanday holatda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'laydilar?
10. Ijtimoiy soliqni to'lovchilar budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashadimi?
11. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning ob'ekti va bazasi qanday belgilanadi?
12. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning stavkalari kim tomonidan belgilanadi?
13. Fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari miqdori necha foizni tashkil etadi?

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

1-masala. Toshkent shahrida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar ishchilariga hisoblangan ish haqi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Direktor – 1450000 so'm (1 oyga);

Hisobchi – 1400000 so'm (1 oyga);

Sotuvchi – 1350000 so'm (1 oyga);

Talab qilinadi: *Savdo korxonasining 2021 yil 1 chorak uchun ijtimoiy soliq summasini?*

2-masala. Chakana savdo bilan shug‘ullanuvchi korxonada 3 kishi ishlaydi. 2019 yilning 1-choragi uchun ularga jami 8700000 so‘m ish haqi hisoblangan.

Talab qilinadi: *Savdo korxonasining 2021 yil 1 chorak uchun ijtimoiy soliq summasini?*

3-masala. Toshkent shahrida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonada ishchilariga hisoblangan ish haqi bo‘yicha quyidagi ma‘lumotlar berilgan:

Direktor – 1650000 so‘m (1 oyga);

Hisobchi – 1600000 so‘m (1 oyga);

Sotuvchi – 1550000 so‘m (1 oyga);

Talab qilinadi: *Savdo korxonasining 2021 yil 1 chorak uchun ijtimoiy soliq summasini?*

4-masala. 2021 yil yanvar oyi uchun quyidagi ma‘lumotlar berilgan:

-ish haqi hisoblangan – 11600 ming so‘m;

-ishchi va hizmatchilarning yo‘l pattalariga ajratilgan xarajatlar – 600 ming so‘m;

-ishchilarga moddiy yordam ajratilgan – 10600 ming so‘m;

-ishchilarning tushlik ovqatlariga – 930 ming so‘m;

kunlik xarajatlar berilgan:

-me‘yor chegarasida – 8950 ming so‘m;

-me‘yordan yuqori – 7500 ming so‘m;

Oy yakuniga asosan mukofot puli hisoblangan – 1250 ming so‘m.

Eng kam ish haqi miqdori – 149775 so‘m.

Talab qilinadi: *2021 yil yanvar oyi uchun ishchi va xizmatchilarning mehnatga haq to‘lash jamg‘armasidan Pensiya jamg‘armasiga ajratiladigan ijtimoiy soliq summasini aniqlang?*

5-masala. Toshkent shahrida chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonada ishchilariga 2021 yil 6 oylik yakun bo‘yicha quyidagi miqdorlarda ish haqlari hisoblandi:

Yanvar oyi uchun – 6500000 so‘m;

Fevral oyi uchun – 6500000 so'm;

Mart oyi uchun – 6500000 so'm;

Aprel oyi uchun – 8500000 so'm;

May oyi uchun – 8500000 so'm;

Iyun oyi uchun – 8500000 so'm;

Talab qilinadi: Savdo korxonasi 2019 yil 6 oylik yakun bo'yicha hisoblangan ijtimoiy soliq summasini aniqlang?

1-muammoli vaziyat.

Quyidagi savollarga javob bersangiz:

1. Homiladorlik va tug'ish ta'tilining belgilangan muddati qancha?

2. Homiladorlik nafaqasi summasidan 25%lik yagona ijtimoiy to'lov va Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari undiriladimi hamda nafaqaga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadimi?

Vaziyatning echimi.

– 1. Mehnat kodeksining 233-moddasiga ko'ra ayollarga tuqqunga qadar 70 kalendar kun va tuqqanidan keyin 56 kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug'ilgan hollarda – 70 kalendar kun) muddati bilan homiladorlik va tug'ish ta'tillari berilib, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lanadi.

Homiladorlik va tug'ish ta'tili nafaqasi jamlangan holda hisoblab chiqilib, tug'ishga qadar amalda bunday ta'tilning necha kunidan foydalanilganidan qat'i nazar, ayolga to'liq beriladi.

2. Soliq kodeksining 178-moddasiga asosan jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga pensiyalar va qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar kiradi. Shundan kelib chiqib, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa jismoniy shaxslarning boshqa daromadlariga kiritiladi.

Soliq kodeksi 179-moddasining 20-bandiga asosan jismoniy shaxslarning mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining 12 baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar (bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari, shu

jumladan oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqasi mustasno), shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to'lovlar tarzidagi daromadlariga soliq solinmaydi.

Demak, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqaga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydi.

Soliq kodeksining 172-moddasida ko'rsatilgan ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari solish ob'ektidir (Soliq kodeksining 306-moddasi).

Soliq kodeksining 307-moddasiga asosan yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

Shu tariqa, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqaga yagona ijtimoiy to'lov ham, sug'urta badallari ham solinmaydi, chunki ular mehnat haqi tarzidagi daromadlarga kirmaydi.

2-muammoli vaziyat. O'z korxonamizni ochmoqchimiz, biroq qanday shaklda ochishni bilmayapmiz. Qaysi biri yaxshi va ishonchli: MChJmi yoki QMJ?

Vaziyatning echimi.

– MChJ va QMJning umumiy xususiyatlari ko'p. Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarni tashkil etish, ularning faoliyati, ushbu jamiyatlarni qayta tashkil etish va tugatish bobidagi munosabatlarni «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonun (6.12.2001 yildagi 310-II-son) tartibga soladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) deb, xuddi qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat (QMJ) singari, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan

xo'jalik jamiyati hisoblanadi.

Biroq MChJda ishtirokchilar uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Ushbu tashkiliy-huquqiy shakl shu jihati tufayli ham juda ommalashgan.

QMJ ishtirokchilari esa jamiyat majburiyatlari bo'yicha o'zlariga tegishli mol-mulklari bilan hamma uchun bir xil bo'lgan va qo'shgan hissalar qiymatiga nisbatan jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar. Ya'ni QMJ kreditorlarning talablarini o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkdan to'liq hajmda qondirishga qobil bo'lmasa, qolgan talablar uning ishtirokchilariga qaratiladi. QMJ ishtirokchilari javobgarligining eng yuqori miqdori uning ustavida nazarda tutiladi.

Shu tariqa, ko'rsatilgan tashkiliy-huquqiy shakllar o'rtasidagi asosiy farq firma majburiyatlari bo'yicha javobgarlikni huquqiy tartibga solishdadir.

QMJ kamdan kam hollarda tashkil etiladi, chunki tijorat tashkilotlarining unga yaqin va eng ko'p tarqalgan shakli – MChJ bilan qiyoslaganda, ishtirokchilar zimmasiga qo'shimcha mulkiy javobgarlik yuklaydi.

Biroq ayni shu sababli QMJ MChJga qaraganda ishonchliroq hamkor hisoblanadi. Nazariy jihatdan olganda bunday tashkilotlar bilan ishlash foydaliroq, chunki mablag'larni yo'qotish xatari kam. Biznesning QMJ andozasida tashkil etilishi birinchi navbatda jamiyat muassislari bo'lg'usi hamkorlarga jamiyat nomidan qabul qilinadigan qarorlar uchun o'zlarining mol-mulklari bilan ham javob berishlarini ko'rsatish maqsadini ko'zlaydi.

MChJning to'liq firma nomi jamiyatning to'liq nomini va «mas'uliyati cheklangan jamiyat» so'zlarini o'z ichiga olishi kerak. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning qisqartirilgan firma nomi uning to'liq yoki qisqartirilgan nomini hamda «mas'uliyati cheklangan jamiyat» degan so'zlarni yoki MChJ qisqartmasini o'z ichiga olishi kerak.

QMJning to'liq firma nomi jamiyatning to'liq nomini va «qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat» degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak. Qo'shimcha

mas'uliyatli jamiyatning qisqartirilgan firma nomi jamiyatning to'liq yoki qisqartirilgan nomini hamda «qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat» degan so'zlarni yoki QMJ qisqartmasini o'z ichiga olishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda imkoniyatlaringizni chamalab ko'rib, ularning qay birini tanlash – faqat sizning ixtiyoringizda!

3-muammoli vaziyat. Biz xodimlarimizning farzandlari qatnaydigan bolalar bog'chasiga mablag' o'tkazdik.

Ushbu summalarga 25% YaIT va ShJBPHga 0,1% badal hisoblab yoziladimi?

Vaziyatning echimi.

– Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari solinadigan daromadlarni aniqlashda Soliq kodeksining 306–307-moddalariga amal qilish kerak. Bunda soliq solish ob'ekti bo'lib faqat mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hisoblanadi (Soliq kodeksining 308-moddasida ko'rsatilganlari bundan mustasno).

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar kiradi:

-ish haqi va bajarilgan ish uchun boshqa to'lovlar;

-rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;

-kompensatsiya to'lovlari;

-ishlanmagan vaqt uchun haq (Soliq kodeksining 172-moddasi).

Xodimlar farzandlarining bolalar bog'chasi uchun o'tkaziladigan mablag'lar Soliq kodeksining 177-moddasiga ko'ra xodimlarning (ota-onalarning) moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadi.

Soliq kodeksi qoidalariga ko'ra, mulkiy daromadlar (Soliq kodeksining 176-moddasi), moddiy naf tarzidagi daromadlar (Soliq kodeksining 177-moddasi), boshqa daromadlar (Soliq kodeksining 178-moddasi) tarzida belgilangan daromadlar YaIT va sug'urta badallari solish ob'ektlari hisoblanmaydi, o'z navbatida, ularga YaIT (25%) va sug'urta badallari hisoblab yozilmaydi.

Moddiy naf tarzidagi daromadlar jami daromadga kiritiladi va ularga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda fuqarolarning Xalq bankida ochiladigan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ajratmalar (1%)

solinadi.

4-muammoli vaziyat. Xodimga har oyda hisoblab yoziladigan ish haqi maosh, ishbay haq va mukofotdan tashkil topadi. Bunday holatda ta'til haqi qanday hisoblab yoziladi, o'rtacha ish haqi qanday hisoblanadi?

Vaziyatning echimi.

– Ta'tilga haqni hisoblab yozish uchun o'rtacha oylik ish haqi hisob-kitobi Vazirlar Mahkamasining 11.03.1997 yildagi 133-son qaroriga 6-ilovaga muvofiq amalga oshiriladi. U hisob-kitob kunida tarifkatsiya bo'yicha belgilangan ish haqi yoki lavozim maoshidan kelib chiqib, ularni tarifkatsiya bo'yicha belgilangan ish haqi yoki lavozim maoshidan oshgan summaning o'n ikkidan biriga (6 oy to'liq ishlaganlarga oltidan biriga; 7 oy to'liq ishlaganlarga ettidan biriga va hokazolar) oshirgan holda aniqlanadi. Unga ishbay asosida ishlab topilgan qo'shimcha ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ish haqiga qo'shimcha haqlar va ijtimoiy sug'urta bo'yicha badallar hisoblanadigan boshqa to'lovlar kiradi.

Shu tariqa, ta'til haqini hisoblash uchun o'rtacha oylik ish haqi quyidagi tartibda belgilanadi: hisob-kitob kunida belgilangan maoshga uning hisob-kitob davrida (ta'til beriladigan oydan avvalgi 12 oyda) olingan ishbay asosida ishlab topilgan qo'shimcha ish haqi va mukofotlardan $\frac{1}{12}$ (yoki $\frac{1}{6}$, $\frac{1}{7}$ – agar xodim korxonada bir yildan kam muddat ishlayotgan bo'lsa, ishlangan oylar soniga bog'liq holda) qism qo'shiladi. So'ngra olingan summa 25,4 ga bo'linadi va ta'til kunlari soniga ko'paytiriladi. Natijada ta'til puli summasi olinadi.

MISOL. Ishchiga 2016 yil 1 dekabrda 18 ish kuni davom etadigan mehnat ta'tili berildi. Hisob-kitob kunida ish haqi tarif bo'yicha 310 000 so'mni tashkil etgan. Undan tashqari hisob-kitob davrida (2015 yil dekabr, 2016 yil yanvar–noyabr) quyidagi to'lovlar amalga oshirilgan: fevralda – ishlab chiqarishda yaxshi natijalarga erishganlik uchun mukofot – 888 000 so'm; iyunda – ishbay asosida qo'shimcha ish haqi – 660 000 so'm; sentyabrda – tungi vaqtda ishlaganlik uchun qo'shimcha haq – 25 000 so'm; noyabrda – moddiy yordam – 150 000 so'm.

O'rtacha oylik ish haqi hisoblanayotganda moddiy yordam summasi hisobga

olinmaydi, chunki u boshqa daromadlarga kiradi (Soliq kodeksining 178-moddasi) va, tegishincha, unga ijtimoiy sug'urta badallari hisoblanmaydi.

Mehnat ta'tiliga haq to'lash uchun o'rtacha oylik ish haqi:

$310\ 000 + (888\ 000 + 660\ 000 + 25\ 000) / 12 = 441\ 083$ so'mni tashkil qiladi.

Hisoblab yozilgan ta'til haqi summasi:

$441\ 083 / 25,4 \times 18 = 312\ 578,5$ so'mga teng.

Ta'til haqi summasiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi, undan majburiy sug'urta badallari ushlanadi, unga yagona ijtimoiy to'lov hisoblanadi, shuningdek shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ajratmalar olinadi.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlariga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

- chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im
- konsullik yig'imi
- Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im
- Ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im

2. Ijtimoiy soliq va sug'urta badallari quyidagi ko'rsatilgan qaysi to'lovga hisoblanmaydi.

- xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli xayriya jamg'armalarga o'tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlarga
- ilmiy unvon va faxriy unvon uchun qo'shimcha to'lovlarga
- tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar
- predmeti ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lovlar

3. Ijtimoiy soliqning soliq solish ob'ektini ko'rsating.

- rag'batlantirish xususiyatiga ega ish haqi tarzidagi daromadlar

- b. yalpi tushum
- c. tovar oborot
- d. yalpi daromad

4. Ijtimoiy soliqni to'lash qaysi muddatlarda amalga oshiriladi?

- a. har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan
- b. har chorakda, chorakdan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmasdan
- c. har oyda, keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmasdan
- d. har chorakda, chorak ikkinchi oyning 15-kunidan kechiktirmasdan

11-MAVZU: SOLIQ TO'LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM HUDUDLARIDA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Quyidagi atamalarga izoh bering: to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar, oddiy shirkat shartnomasi, birgalikdagi faoliyat, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaligi, yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo'jaligi, bozorlar, dehqon bozorlari, patta to'lovi, kontsert-tomosha faoliyati, advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari, ijara to'lovi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
2. Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
3. Dehqon xo'jaliklariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
4. Dehqon xo'jaliklari to'laydigan soliqlar tarkibi haqida tushuncha bering.
5. Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
6. Bozorlar tomonidan to'lanadigan soliqlar va majburiy ajratmalarni aytib

bering?

7. Kontsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari nima?

8. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga qanday soliq imtiyozlari amal qiladi?

9. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari aytib bering.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar qanday hollarda qo'llaniladi?

- a. chet ellik investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirilganda
- b. chet ellik investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasining kafolati berilgan holda amalga oshirilganda
- c. yuridik shaxslarning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi ko'pi bilan 50 foizni tashkil etganda
- d. sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarganda

2. Kontsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi yuridik shaxslar zimmasida quyidagilarning qaysi birini to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

- a. to'lov manbaida ushlab qolinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar
- b. yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
- c. obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i
- d. suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

3. Yuridik shaxslar davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish yuborib, tekshiruvlar natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qancha muddatda to'lashlari mumkin.

- a. qaror qabul qilingan kundan e'tiboran olti oy mobaynida teng ulushlarda
- b. qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir yil mobaynida teng ulushlarda
- c. qaror qabul qilingan kundan kechiktirmay to'lashi lozim
- d. qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy mobaynida to'lashi lozim

4. Soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi.

- a. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- b. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi
- c. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi
- d. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

5. Ortiqcha to'langan soliq summalarini qaytarish qancha ish kuni ichida tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

- a. o'ttiz ish kuni ichida
- b. o'n ish kuni ichida
- c. o'n besh ish kuni ichida
- d. besh ish kuni ichida

6. Soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnomaning shakli qaysi organ tomonidan tasdiqlanadi.

- a. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi
- b. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- c. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- d. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi

7. Soliq qarzini soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish qanday tartibda amalga oshiriladi.

- a. davlat soliq xizmati organining da'vo arizasi asosida sud tartibida
- b. banklarning da'vo arizasi asosida sud tartibida

- c. moliya bo'limining da'vo arizasi asosida sud tartibida
- d. g'aznachilik bo'limining da'vo arizasi asosida sud tartibida

8. Kameral nazorat qanday tartibda amalga oshiriladi.

- a. soliq to'lovchining huzuriga bormasdan davlat soliq xizmati organi joylashgan erda amalga oshiriladi.
- b. davlat soliq xizmati organi tomonidan nazorat tartibidagi tekshiruv shaklida amalga oshiriladi.
- c. davlat soliq xizmati organi tomonidan yuridik shaxs huzurida amalga oshiriladi.
- d. davlat soliq xizmati organi tomonidan xronometraj shakli amalga oshiriladi.

9. Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami - bu.....

- a. muayyan soliq to'lovchi hisobga qo'yilganda unga beriladigan raqamdir.
- b. muayyan soliq to'lovchi bankdan hisob raqami ochganda unga beriladigan raqamdir.
- c. muayyan soliq to'lovchiga statistika organlari tomonidan unga beriladigan raqamdir.
- d. muayyan soliq to'lovchiga g'aznachilik bo'limi tomonidan unga beriladigan raqamdir.

10. Yangi tashkil etilgan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran qancha vaqt mobaynida rejali soliq tekshiruvlaridan o'tkazilmaydi

- a. dastlabki uch yil mobaynida
- b. dastlabki besh yil mobaynida
- c. dastlabki ikki yil mobaynida
- d. dastlabki bir yil mobaynida

11. Davlat soliq xizmati organi rejali soliq tekshiruvi o'tkazishning boshlanishini necha kun oldin yozma shaklda xabardor qilishi shart.

- a. o'ttiz kalendar kun oldin
- b. o'n kalendar kun oldin

- c. besh kalendar kun oldin
- d. o'n kalendar kun oldin

12. Moliyaviy sanksiyalar-bu.....

- a. soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi.
- b. javobgarlik chorasi bo'lib, statistika organlari tomonidan undiriladi.
- c. javobgarlik chorasi bo'lib, moliya organlari tomonidan undiriladi.
- d. soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, natura ko'rinishida qo'llaniladi.

13. Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash yoxud tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirishga qanday jarima solinadi.

- a. kirim qilinmagan tovar qiymatining 20 foizi miqdorida
- b. kirim qilinmagan tovar qiymatining 15 foizi miqdorida
- c. kirim qilinmagan tovar qiymatining 5 foizi miqdorida
- d. kirim qilinmagan tovar qiymatining 10 foizi miqdorida

14. Banklardan har bir kechiktirilgan kun uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'tkazilmagan summasining necha foizi miqdorida belgilangan tartibda penya undiriladi.

- a. 0,5
- b. 0,05
- c. 0,033
- d. 0,2

15. Soliq to'lashning majburiyligi qaysi me'yoriy hujjatlarda belgilangan?

- a. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Soliq kodeksi
- b. Soliq Kodeksi, Prezident qarorlari
- c. Soliq kodeksi
- d. Soliq inspeksiya, Soliq Qo'mitasi

16. Yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari uchun yer solig'idan qanday imtiyozlar taqdim etiladi?

- a. imtiyozlar taqdim etilmagan

- b. davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran etti yilga ozod qilinadi
- c. davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran ikki yilga ozod qilinadi
- d. davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran besh yilga ozod qilinadi

17. Dehqon xo'jaliklari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qanday muddatlarda to'laydilar?

- a. yilda bir marta, keyingi yilning 1 mayigacha
- b. yilda to'rt marta, har chorakda
- c. yilda ikki marta, har olti oyda
- d. yilda bir marta, 31 dekabrgacha

18. Ishonchli shaxs birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilish oborotlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i, Aksiz solig'i va davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar to'laydimi?

- a. to'laydi
- b. to'lamaydi
- c. imtiyozli stavkalarda to'laydi
- d. 5 yil muddatga ozod etiladi

19. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari zimmasida quyidagilarning qaysi birini to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

- a. ijtimoiy soliq
- b. yer solig'i
- c. mol-mulk solig'i
- d. yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq

20. Bozorlar zimmasida quyidagilarning qaysi birini to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

- a. davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar
- b. foyda solig'i
- c. mol-mulk solig'i
- d. yer solig'i

ATAMALAR IZOHI

Soliq sub'ekti - soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar, ya'ni soliqqa oid munosabatlarni tashkil etuvchi tomonlarning o'zaro majmuasi bo'lib, unda bir tomondan, soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar), boshqa tomondan soliqni undirish vakolati yuklangan davlat soliq xizmati organlari - Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmalari, shahar va tuman davlat soliq inspeksiyalari qatnashadi. O'z faoliyatida barcha yuridik va jismoniy shaxslar soliq sub'ekti sifatida namoyon bo'lmaydi. Chunki, bu erda soliqlardan batamom ozod etiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar mavjudki, ular soliq sub'ekti sifatida soliq munosabatlarida ishtirok etmaydilar.

Soliq agenti - yuridik va jismoniy shaxslardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish hamda davlat byudjetiga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunday yuridik shaxslar o'z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarning mazkur korxonada o'z mehnati, investitsiyasi bilan ishtirok etishi natijasida olgan foydasi, daromadlaridan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qoladi hamda davlat byudjetiga o'tkazib beradi. Soliq agentlari davlat byudjetiga soliqlarni bevosita yoki bilvosita ishga yollaganligi natijasida to'lanadigan ish haqidan, dividendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo'lgan soliq summalarini ushlab qoladi va byudjetga o'tkazib beradi, ushlab qolinmagan, kam ushlab qolingan va o'z vaqtida o'tkazib berilmagan soliq summasi uchun qonunchilikda belgilangan moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Har bir yuridik shaxs soliq munosabatlarida soliq sub'ekti bo'lishi bilan birgalikda soliq agenti sifatida ham ishtirok etadi. Soliq agenti iqtisodiy adabiyotlarda asosan fiskal agent sifatida qayd etiladi.

Soliq ob'ekti - soliq to'lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan foydasi, daromadi, tovar oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq ob'ekti sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarning qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan

foydalanish miqdori va boshqalar kiradi. Soliq ob'ekti aslida jamiyatdagi mavjud moddiy va ma'naviy boyliklarning ayrimlariga qonun yo'li bilan ulardan foydalanuvchi, egalik qiluvchi va tasarruf qiluvchi soliq sub'ektlarining huquqlarini soliqqa tortishni ifodalaydi. Binobarin, moddiy yoki ma'naviy boyliklar soliq ob'ekti qilib albatta unga mulkiy huquqqa ega bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Masalan, egasiz imoratga soliq solinmaydi, chunki egasiz imoratga nisbatan soliq sub'ekti mavjud emas, vaholanki, bo'lgan taqdirda ham soliq ob'ekti sifatida imorat emas, balki ushbu imoratga bo'lgan mulkiy huquqqa soliq solinadi. Shu jihatdan aytish mumkinki, soliq ob'ekti aslida yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqi va daromadiga qaratiladi.

Soliqqa tortish predmeti - soliq solinadigan daromad, tovar oborot, mol-mulk va boshqalarga bo'lgan huquq emas, balki ularning o'zidir, ya'ni soliq solish ob'ekti bo'lib biror-bir soliq predmetiga bo'lgan huquq tushunilsa, predmet bo'lib ana shu egalik qilinadigan daromad, er uchastkasi, imorat va boshqalarning o'zi tushuniladi. Soliq ob'ekti yoki soliqqa tortish predmeti, unga kim egalik qilish huquqiga ega bo'lsa, unda soliqni to'lash majburiyati, ya'ni soliq sub'ektini namoyon qiladi. Demak, aytishimiz mumkinki, soliqqa tortish predmetiga egalik qilish huquqi soliq ob'ektini vujudga keltirsa, o'z navbatida ushbu predmetga kimning egalik qilishi soliq sub'ektini yoki soliq to'lovchisini namoyon etadi.

Soliq manbai - bu soliq to'lovchining to'laydigan soliqlari manbai, ya'ni daromadi. Soliq ob'ekti va soliq manbaini bir-biridan farqlash lozim. Ayrim soliq turlari bo'yicha, masalan, foydaga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo'yicha soliq ob'ekti ham soliq manbai ham bir xil bo'ladi, ya'ni nima ob'ekt bo'lsa, uning o'zi manba hisoblanadi.

Shu o'rinda soliqqa tortish predmeti, soliq ob'ekti va soliq manbaini farqlash va ularning mohiyatini ochib berish uchun aniq soliq turi bo'yicha ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Yer solig'i bo'yicha ko'radigan bo'lsak, uning soliqqa tortish predmeti bo'lib, yer uchastkasi maydoni, unga kimning egalik qilish huquqi mavjud bo'lsa soliq ob'ekti paydo bo'ladi va ushbu yer solig'i qaysi manba hisobidan davlat

byudjetiga to'lansa, masalan, erdan turli xil ko'rinishda foydalanish natijasida olinadigan daromad uning manbai hisoblanadi. Demak, soliqqa tortish predmeti o'z-o'zidan kimdadir soliq to'lash majburiyatini vujudga keltirmaydi. Misolimizga qaytadigan bo'lsak, yerga bo'lgan huquqni joylardagi mahalliy xokimiyat organlari beradi va shu bilan birgalikda yerdan foydalanuvchida soliq to'lash majburiyati vujudga keladi, chunki unda ushbu yer uchastkasidan foydalanish huquqi mavjud. Demak, soliq predmetiga kimning egalik qilish huquqi mavjud bo'ladigan bo'lsa, u soliq munosabatlarida soliq sub'ekti sifatida ishtirok etadi.

Soliq bazasi - soliq ob'ektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo'llaniladigan ob'ektning miqdoriga ham bog'liq. Soliq bazasining miqdori qonunchilikda soliqqa tortilishi lozim bo'lgan soliq ob'ektidan ruxsat etiladigan chegirmalarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Soliq bazasini soliq to'lovchilarning mazkur toifasiga taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirishga ruxsat etiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, soliq bazasi soliq ob'ektidan katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Masalan, soliq to'lovchiga soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday sharoitda soliq bazasi soliq ob'ektidan kichik, soliq ob'ekti qonunchilik bilan kengaytiriladigan bo'lsa undan katta bo'lishi mumkin.

Soliqqa tortish birligi - bu ob'ektning o'lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida ob'ektning o'lchov birligi bo'lib uning so'mdagi bahosi ifodalansa, er solig'ida o'lchov birligi bo'lib kv.m. yoki gektar hisoblanadi.

Soliq stavkasi - ob'ektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir. Soliq stavkasi soliq elementlari ichida eng ko'p amaliy ahamiyatga ega bo'lgan unsurdir. Chunki, soliq stavkalarini o'zgartirish orqali davlat xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga sezilarli ta'sir etadi, ayrim faoliyat, sohaga ustuvorlik berilishi, kapital zarur sohalarga yo'naltirilishi, rag'batlantirilishi mumkin. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Soliq imtiyozlari - soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil engilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 30-moddasida imtiyozlar quyidagicha izohlangan: “Soliq kodeksida, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar deb e'tirof etiladi”.

Soliq imtiyozlarining turlari, amal qilish mexanizmlari, belgilash mezonlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Soliq bazasini hisoblash usullari. Soliq bazasini hisoblashning ikki xil usuli mavjud bo'lib, ular kassa usuli va hisobga olish usullaridir. Kassa usulida soliq to'lovchida soliqlarni to'lash majburiyatlari daromad olganidan keyin vujudga kelsa, hisobga olish usulida esa daromad olingan yoki sotishdan tushum qachon kelib tushishidan qat'iy nazar tovarlarni jo'natilishi o'z navbatida soliqlarni to'lash majburiyatlarini vujudga keltiradi.

Soliqqa tortish usullari uch xil ko'rinishda amalga oshiriladi. Ular quyidagilarga: soliqqa tortishning kadastrli, daromad manбайдan va daromad egasi daromadni olganidan so'ng (deklaratsiya buyicha) soliqqa tortish usullariga ajratiladi.

Soliqlarni to'lash muddatlari va tartiblari. Soliq qonunchiligida har bir soliq turining byudjetga to'lash muddatlari belgilangan. Soliqni to'lash muddatlari deganda soliq to'lovchilarning davlat byudjeti oldida soliq majburiyatlarini bajarish muddati ifodalanadi. Soliqni to'lash muddatlari o'z mohiyatiga ko'ra ikki xil ko'rinishga ega: joriy (bo'nak) to'lovlari va haqiqiy daromad olinganidan keyingi to'lovlar.

Soliqni to'lash tartibida esa: soliqni yo'naltirilganligi (byudjetga yoki byudjetdan tashqari jamg'armalarga), soliqni to'lash vositasi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 48-moddasiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash milliy valyutada, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida

amalga oshiriladi) hamda soliqni to'lash shakllari (naqd pul yoki naqd pulsiz) ifodalanadi.

Soliq yuki - soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'idagi faoliyati natijasida to'lagan soliqlarining yig'indisini ifodalaydi. Bunda soliq to'lovchilarning to'laydigan barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining yig'indisi ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to'lovchilar zimmasiga qancha to'g'ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq to'g'ri soliqlarda soliq og'irligi aynan soliqni byudjetga hisoblab o'tkazuvchi soliq to'lovchilar zimmasiga tushsa, egri soliqlarda esa soliq yuki soliqni to'lovchilar emas, balki tovar (ish, xizmat)larni iste'mol qiluvchilar zimmasiga tushadi. Muayyan turdagi yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha soliq yukining bir yilda byudjetga to'langan barcha majburiy to'lovlar yig'indisi bilan aniqlash mumkin. Soliq yukining darajasi o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy qudratiga, inflyatsiya darajasiga, davlatning vakolatli funksiyalarni qo'llashiga, qolaversa bozor munosabatlarining rivojlanishini va ijtimoiy harakat doirasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

asosiy ish joyi — ish beruvchi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo'lgan ish joyi;

asosiy faoliyat turi — yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo'yicha umumiy realizatsiya qilish hajmidagi sof tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati;

birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot — birgalikdagi faoliyat natijasi bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

byudjetdan ajratiladigan subsidiya — davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun byudjet hisobidan beriladigan pul mablag'lari; soliq to'lovchiga muayyan maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlar hisobiga bo'shaydigan mablag'lar;

grant — davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga

beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk;

dividendlar — aktsiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o'rtasida (ishtirokchilari, a'zolari o'rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalar bo'yicha) taqsimlanadigan sof foydaning va (yoki) o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek muassis (ishtirokchi, a'zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a'zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi, taqsimlanmagan foyda ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish uchun yo'naltirilgan taqdirda, yuridik shaxs aktsiyadorining, muassisining (ishtirokchisining, a'zosining) qo'shimcha aktsiyalar qiymati, ulush (pay, hissa) qiymatining oshishi tarzida olingan daromadlari;

ijara (lizing) to'lovi — ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to'laydigan summa;

ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi — buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan ijara (lizing) to'lovi summasi bilan ijara (lizing) ob'ektining qiymatini qoplash summasi o'rtasidagi farq ko'rinishidagi ijara (lizing) to'lovining bir qismi;

insonparvarlik yordami — aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo'llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg'araz ko'maklashish. Insonparvarlik yordami dori vositalari va tibbiy ahamiyatga molik buyumlar, xalq iste'moli tovarlari, boshqa tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar, transport va texnika, shuningdek ixtiyoriy ravishdagi xayr-ehsonlar, bajarilgan ishlar va xizmatlar, shu jumladan insonparvarlik yordami yuklarini tashish, kuzatib borish va saqlash tariqasida beriladi hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan vakolatli tashkilotlar orqali taqsimlanadi;

ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish — ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

kredit tashkilotlari — tegishli litsenziyaga ega bo'lgan banklar,

mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari;

kurs bo'yicha farq — milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq;

mol-mulk — egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish ob'ektlari bo'la oladigan moddiy ob'ektlar, shu jumladan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ulushlar (paylar, hissalar) hamda nomoddiy ob'ektlar;

oila a'zolari — er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan farzandlikka olinganlar;

operativ ijara — moliyaviy ijara shartnomasi bo'lmagan mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish;

realizatsiya qilish — sotish, ayirboshlash, beg'araz berish maqsadida tovarlarni jo'natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek garovga qo'yilgan tovarlarga bo'lgan mulk huquqini garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish. Hisobvara-q-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, tovarlar jo'natilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi kvitantsiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir;

royalti — quyidagilar uchun har qanday turdagi to'lovlar:

fan, adabiyot va san'at asarlaridan, shu jumladan elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar ob'ektlaridan, jumladan ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini berganlik uchun;

sanoat mulki ob'ektiga, tovar belgisiga (xizmat ko'rsatish belgisiga), savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomadan) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou-xaudan) foydalanganlik uchun;

savdo faoliyati — qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir

faoliyat;

soliq solishning soddalashtirilgan tartibi — soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi;

soliq qarzi — soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan ushbu Kodeksda belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar;

sof tushum — tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i, Aksiz solig'i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum;

sof foyda — soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda;

tannarx — mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi. Tannarx buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi;

tovar oboroti — muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo'lgan), pulda ifodalangan mablag'lar;

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum — realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo'lgan) mablag'lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati;

tovarlarni eksport qilish — O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish;

to'lov manbai — soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

umidsiz qarz — sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lmagan qarz;

favqulodda holatlar — taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, tabiat hodisalari (zilzila, ko'chkilar, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko'zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar bo'lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi;

foizlar — har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad;

yutuq — lotereyalar, o'yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirlarda olingan, natura holidi yoki pulda ifodalangan to'lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar;

yaqin qarindoshlar — er, xotin, ota-ona, bolalar, tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillar, bobolar, buvilar, nevaralar;

O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri — soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi;

qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar — buyurtmachiga tegishli xom ashyo va materiallar bo'lib, buyurtmachi ularni mahsulot ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beradi hamda tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot keyinchalik buyurtmachiga qaytariladi;

hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar — operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'rayev A.S., Amanov A.M., Shodiyev O.A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020. – 360 b.
2. Qurbanov Z.N., Misirov K.M., Hotamov K.R., Isayev F.I. Soliq hisoboti. O'quv qo'llanma. – T.: “Nihol print” OK, 2021. – 196 b.
3. Usmanova M.S. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: “Nihol print” OK, 2021. – 396 b.
4. Jo'rayev A.S., Safarov G'.A., Meyliyev O.R. Soliqlar soliqqa tortish. (II-qism). Soliq nazariyasi. Darslik. – T.: “Nihol print” OK, 2021. – 260 b.
5. Jo'rayev A.S., Shirinov S.E. Soliq tushumlari hisobi va prognozi. Darslik. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019. – 416 b.
6. Vaxobov A.V., Jo'rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. – 408 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-apreldagi o'zgarishlar bilan) <https://lex.uz/ru/docs/35869>
8. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (2022-yil 27-iyuldagi o'zgarishlar bilan) <https://lex.uz/ru/docs/4674893>
9. O'zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida”gi Qonuni, 2021-yil 30-dekabr, O'RQ-742-son
10. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2019. – 61 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. “Innovatsion g'oyalarni ilm-fan va sanoatga keng tatbiq etish - islohotlar samaradorligining bosh mezoni” //Xalq so'zi, №107 (7337). 2019-yil 29-may.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-apreldagi “Byudjetlararo munosabatlarni va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-208-son Qarori
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi “Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar

yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-162-son Farmoni

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni.
16. Jo'rayev A.S., Berdiyeva U.A. Soliq ma'murchiligi. O'quv qo'llanma. – T.: "Nihol print" OK, 2022. – 284 b.
17. Маршавина Л.Я., Чайковская Л.А. Налоги и налогообложение. Учебник. – М.: «Юрайт», 2022. – 510 с.
18. Пансков В.Г. Налоги и налогообложение. Учебник. – М.: «Юрайт», 2021. – 472 с.

Internet saytlari:

19. <http://www.my.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
20. <http://www.mf.uz> – O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi veb sahifasi
21. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb sahifasi
22. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi veb sahifasi
23. <http://www.my.soliq.uz> – Elektron soliq xizmatlari portali
24. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
25. <https://www.norma.uz> – Axborot-huquqiy portal

MUNDARIJA		
	Kirish	3
1-Mavzu	“Soliqlar va soliqqa tortish (4-modul) “Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanining mazmuni, predmeti va metodi	4
2-Mavzu	Foyda solig‘i	9
3-Mavzu	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	16
4-Mavzu	Aksiz solig‘i	29
5-Mavzu	Aylanmadan olinadigan soliq	34
6-Mavzu	Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	49
7-Mavzu	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	53
8-Mavzu	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i	57
9-Mavzu	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	61
10-Mavzu	Yuridik shaxslardan undiriladigan yig‘imlar	65
11-Mavzu	Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga va O‘zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari	74
	Atamalar izohi	80
	Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati	90

Soliqlar va soliqqa tortish (4-modul) Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha uslubiy qo'llanma (vaziytli masalalar yechish shaklida). Amanov A.M., Shodiyev O.A. – T.: "Iqtisod-moliya", 2023. – 92 b.

Muharrir:

Bosishga ruxsat etildi:

Adadi:

Shartli bosma tabog'i:

Buyurtma № _____

700084, Toshkent, A.Temur ko'chasi, 60^a-uy.